



MILLIY ARMIYA – DINA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR



QALBIMIZ VATAN,
QO‘LIMIZ QALQON!



IJTIMOY-SIYOSIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 23-YANVAR
№4 (3170)



Munosabat



MUROJAATNOMA — KELAJAKKA “YO‘L XARITASI”

2026-yildan nimalar kutamiz?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga navbatdagi Murojaatnomasi mamlakatimizning yaqin va uzoq istiqboldagi taqdirini belgilab bergan konseptual hujjat bo‘ldi. Davlat rahbari o‘z nutqida 2026-yilni “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qilishi zamirida ulkan siyosiy iroda va insonparvarlik falsafasi yotibdi. Bu Yangi O‘zbekiston davlatchiligini barpo etishda “pastdan yuqoriga” tamoyilining amalda namoyon bo‘lishidir. Mahalla endi islohotlarning “bosh operatori” va ijtimoiy adolatning haqiqiy ko‘zgusiga aylandi.

Insoniyat tarixida davlat va jamiyat munosabatlarini tartibga soluvchi turli modellar mavjud. Biroq o‘zbek xalqining ko‘p asrlik an‘analarida mahalla shunchaki yashash joyi bo‘lishidan tashqari insonni jamiyat bilan bog‘laydigan, uning quvonch-u tashvishiga sherik bo‘ladigan noyob institutsional tuzilma ekani bilan ham ahamiyatlidir.

Prezident Murojaatnomasida mahallani islohotlar markaziga qo‘yishi millatning tarixiy ildizlariga qaytayotganiga dalildir. **“Davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak”**, degan tamoyil mahalla kesimida o‘zining amaliy ifodasini topdi. Endilikda islohotlar samarasi vazirliklarning hisobotlarida emas, balki mahalla ahlining kundalik hayotida, ularning dasturxonidagi to‘kinlikda va ko‘chalaridagi obodlikda aks etadi.

Murojaatnomaning eng diqqatga sazovor o‘rinlaridan biri mahalla tizimining iqtisodiy asoslarini tubdan o‘zgartirishga qaratilganidir. Dunyo tajribasida mahalliy boshqaruv organlarining muvaffaqiyati ularning moliyaviy mustaqilligi bilan o‘lchanadi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab, qo‘shilgan qiymat solig‘ining bir qismini (*hududlarda 20 foiz*) to‘g‘ridan to‘g‘ri tuman byudjetida qoldirilishi bu davlat moliya tizimidagi “desentralizatsiya”ning eng yuqori nuqtasidir. Bu tizim mahalla raisi va hokim yordamchisini tadbirkorlikni rivojlantirishga “majbur” qiladi. Chunki endilikda mahallada ochilgan har bir yangi korxona to‘lagan soliqning bir qismi o‘sha mahallaning yo‘lini asfalt qilishga yoki maktabini ta‘mirlashga sarflanadi. **Bu esa mahalla ahlini islohotlarning ijtimoiy iste‘molchisidan faol sarmoyadoriga aylantiradi.**

Murojaatnomada ta‘kidlanganidek, daromadlarning prognozga nisbatan oshirib bajarilgan qismining **50 foizi** hamda yer ijarasidan tushumlarning to‘liq tuman byudjetiga berilishi o‘zbek xalq iborasi bilan aytganda, mahallaning “qo‘lini uzun” qiladi. Ilgari mahalla tizimi davlat tomonidan mablag‘ ajratilishini kutib yashagan bo‘lsa, endi ular o‘z hududidagi iqtisodiy imkoniyatlarni ishga solib, muammolarini o‘zlari hal qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Prezidentimiz mahallalarni rivojlantirishda yangi kompleks yondashuvni ilgari surdi. Uzoq yillar davomida muammolar bir butun holda emas, bo‘lak-bo‘lak holda hal qilindi. Bir mahallada elektr toki masalalari

tuzatilsa, gaz muammoligicha qolardi, yo‘l qurilsa, toza ichimlik suvi yo‘q edi.

Aytish joizki, Murojaatnomada infratuzilmaning “yangi geometriyasi” ilgari surildi. Bu Urgut tumani tajribasi orqali namoyon bo‘ladi. “Urgut tajribasi” bu bir hududda barcha muammolarni bir vaqtning o‘zida hal qilish demakdir. Tanlab olingan **33 ta tuman va 330 ta “og‘ir” mahalladagi** ishlar shuni ko‘rsatadiki, davlat endi faqat so‘nggi nuqtani emas, balki butun bir ekotizimni o‘zgartirmoqda. 8,5 trillion so‘mlik maqsadli mablag‘ mahallaning qontomirlariga yangi hayot bag‘ishlaydi. Bu yerda gap nafaqat beton va asfalt haqida, balki zamonaviy xizmat ko‘rsatish maskanlari, bolalar bog‘chalari va tibbiyot maskanlarining yaxlit bir zanjir sifatida ishlashi haqida bormoqda.

Har bir deputatga o‘z hududidagi muammolarni hal etish uchun 3,3 milliard so‘mdan ajratilishi vakillik organining ijro hokimiyati ustidan nazoratini kuchaytiradi. Deputat endi shunchaki gapiruvchi emas, balki aniq byudjetga ega bo‘lgan, mahallaning dardini mablag‘ bilan davolaydigan kuchga aylanadi.

Mahalla – ijtimoiy adolat qaror topadigan oliygohdir. Prezident Murojaatnomada mahallani “mehr-oqibat, adolat va tarbiya maskani” deb atadi. Bu maqsadga erishishda mahalla yettiligining o‘mi beqiyos.

Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar 2026-yilda yangi bosqichga chiqadi. 181 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish va ishsizlik darajasini 4,5 foizga tushirish vazifasi mahalla yettiligining asosiy KPI (*natijadorlik ko‘rsatkichi*) bo‘ladi. Endi ijtimoiy xodim oilaning haqiqiy ahvolini o‘rganadi, hokim yordamchisi unga ish topadi, bankir esa kredit beradi. Bu zanjirli reaksiya bo‘lib, mahallaning ichki iqtisodiy immunitetini mustahkamlaydi.

Mahallalarda 10 mingdan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish loyihalarining ishga tushirilishi qishloq va shahar o‘rtasidagi farqni keskin yo‘qotadi. Har bir mahallada 40 tadan mikroloiyhani amalga oshirish mahalla ahlini markazga borishdan asraydi, ularga o‘z uyining yonida daromad topish imkonini beradi. Bu migratsiya muammosiga topilgan eng samarali va tabiiy yechimdir.

Mahalla faqat iqtisodiyotdan iborat emas. U – millatning ma‘naviy qiyofasini belgilovchi makon. Prezident Murojaatnomada yoshlar

tarbiyasi va mahalla ma‘naviyatiga alohida to‘xtaldi.

Xususan, maktab kutubxonalarini har yili 10 million dona badiiy adabiyot bilan ta‘minlash bu oliyanob ish deb aytish o‘rinli bo‘ladi. Mazkur tashabbus mahalla yoshlarining ma‘naviy olamini boyitishga qaratilgan strategik qadamdir. Kitob o‘qigan mahalla yoshlari jinoyatga qo‘l urmaydi, ularning dunyoqarashi keng bo‘ladi. Bu kelajakdagi inson kapitali uchun qo‘yilgan eng katta sarmoya ekani sir emas.

Mahallalarda sportni rivojlantirish uchun 1 trillion so‘m yo‘naltirilishi jamiyatning jismoniy sog‘lomligini ta‘minlaydi. Sport mahalla yoshlarini zararli illatlardan, bekorchilikdan va “ko‘cha madaniyati”ning salbiy ta‘siridan himoya qiluvchi qalqon bo‘la oladi. Kitobxon va jismoniy jihatdan chiniquqan avlod kelgusida mamlakatning kadrlari sohasidagi katta potentsialga aylanadi.

Murojaatnomada korrupsiyaga nisbatan “favqulodda holat” e‘lon qilinishi va narkojinoyatlarga qarshi umummilliy harakat boshlanishi mahalla ahli uchun ham mas‘uliyat, ham himoyadir.

Prezident ta‘kidlaganidek, narkojinoyatlarga qarshi kurashish faqat huquq-tartibot idoralarining ishi emas. Mahalladagi har bir ota-ona, har bir oqsoqol bu illatga qarshi turishi kerak. Mahallada murosasiz muhit yaratilsagina, giyohvandlik va korrupsiya kabi “zamonaviy vabo”larga barham beriladi.

Murojaatnomada belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar ichida komplayens tizimi va jamoatchilik nazorati masalalarining ko‘tarilishi mamlakat boshqaruvida yangi sifat bosqichi boshlanganidan dalolat beradi. Bu shunchaki texnik o‘zgarish emas, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tubdan isloh qiluvchi tizimdir.

Davlat xaridlarining to‘liq shaffoflashishi iqtisodiyotning eng og‘riqli nuqtalaridan biri bo‘lgan korrupsiyaning oldini olishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi:

Eng avvalo, manfaatlar to‘qnashuviga chek qo‘yiladi. Komplayens nazorati orqali har bir shartnoma va tender jarayoni birma-bir ko‘zdan kechiriladi.

Ikkinchidan, byudjet mablag‘lari tejaladi. Ochiqlik sharoitida sun‘iy ravishda oshirilgan narxlar va “tanish-bilishchilik” tizimi o‘z-o‘zidan barham topadi.

Uchinchidan, tadbirkorlik uchun teng imkoniyatlar yaratiladi. Endilikda davlat buyurtmalarini faqat sifatli xizmat ko‘rsata oladigan va halol raqobatda yenggan subyektlar qo‘lga kiritadi.

Mahalla byudjeti ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatilishi bu davlat byudjetining eng quyi bo‘g‘ini to‘g‘ridan to‘g‘ri xalqqa topshirish demakdir. Bu islohotning ahamiyati turli jihatlarida namoyon bo‘ladi. Xususan, mahalla ahli endi passiv kuzatuvchi emas, balki o‘z hududini rivojlantirish uchun mas‘ul bo‘lgan “Aksiyador”ga aylanadi. Muammolar manzilli hal etiladi. Mablag‘lar bevosita

mahalla yig‘inlarida, odamlarning real ehtiyojlaridan kelib chiqib yo‘naltiriladi (*masalan, yo‘l ta‘miri, ichimlik suvi yoki ko‘cha chiroqlari*). Qayerdagi nazorat mahalliy aholi qo‘lida bo‘lsa, u yerda mablag‘larni talon-toroj qilish imkoniyati minimal darajaga tushadi.

“Davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan tamoyil endilikda amaliy mexanizmlar bilan mustahkamlanmoqda. Ma‘lumki, Muhtaram Prezidentimiz doimiy ravishda o‘z ma‘ruzalarida fuqarolarda ijtimoiy mas‘uliyat hissi kuchli bo‘lishi kerakligini ta‘kidlab kelayotgan edi. Fuqarolarning byudjet jarayonlarida faol ishtirok etishi (*“Ochiq byudjet” portali misolida*) odamlarda “bu mening pulim, bu mening yurtim” degan daxldorlik hissinu uyg‘otadi. Bu esa ijtimoiy mas‘ullikdir.

Xulosa qilib aytganda, komplayens va jamoatchilik nazoratining kuchaytirilishi – korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali, demokratik yo‘lidir. Bu tizim ishlashi uchun nafaqat davlat idorasi, balki har bir fuqaroning faol pozitsiyasi, huquqiy madaniyati va nazorat qilish ishtiyoqi suv va havodek zarur.

Murojaatnomada, shuningdek global iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi sharoitida mahalla ekologik madaniyatning markazi bo‘lishi shartligiga urg‘u berildi.

Har bir mahallada “yashil bog‘”lar yaratilishi va sug‘orish tizimlarining tiklanishi tabiiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Prezidentning Toshkent shahrida 150 kilometr yopiq drenaj tizimini barpo etish va kanallarni betonlash bo‘yicha tashabbusi shaharlarda salqin mikroiklim yaratishga qaratilgan. Bu mahalla ahlining yashash sharoitini sifat jihatidan o‘zgartiradi.

Suvdan oqilona foydalanish madaniyati ham aynan mahalladan boshlanadi. 5,5 milliard dollarlik suv tejovchi texnologiyalar dasturi mahallalardagi dehqon va fermerlarning dunyoqarashini o‘zgartiradi. Suv tejagan mahalla kelajakni tejagan mahalladir.

Prezident Murojaatnomasi yakunida Mirzo Ulug‘bek bobomizning yulduzlar xaritasi haqidagi o‘xshatishini bejiz keltirmadi. Olti asr avval yulduzlarni zabt etgan millat farzandlari bugun yerdagi farovon hayot xaritasini chizmoqda.

2026-yilda mahalla tizimida amalga oshiriladigan o‘zgarishlar nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni, balki jamiyatimizning ma‘naviy-ruhiy muhitini ham tubdan isloh qiladi. Biz o‘zgarishlarni kutib yashamaydigan, balki ularni mahallamizda, o‘z qo‘limiz bilan yaratadigan davrga qadam qo‘ydik.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek: **“Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanimiz!”** Mahalla mana shu birlikning markazi, islohotlarning “bosh operatori” va Yangi O‘zbekistonning muzaffar kelajagidir.

Kamoliddin TO‘RAYEV, Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent



Biz Katta Chimyonga olib boradigan so'qmoq yoqalab og'ir qadamlar tashlab borardik.

Tepamizda moviy gumbaz soqchilari – yulduzlar hamon miltillab, osilib turardi. Qor sovug'i azaliy o'ljasi – borliqni g'ajish uchun atrofga tirmashayotgandi. Xuddi izg'irinda izg'igan och bo'ridek uvvos solib, tog'-u toshlarga qattiq urilib, biz tomonga oshiqar va yuz-ko'zimizni-da nishonga olardi.

– Uzoq manzilni ko'zlab, yo'lga chiqsangiz, aslo keraksiz buyumlarni ola ko'rmang, – dedi III darajali serjant Alishoh Abdullayev xotirjam so'zlab. – Chunki avvaliga hammasi joyida bo'lib ko'rinadi: boradigan joyingiz yaqin, qadamlaringiz esa chaqqonligini his etasiz. Biroq ko'p o'tmay, bular aksi bo'lib chiqadi – endi bosh kiyimingiz ham tosh-zambildek og'ir tortadi.

U mendan besh qadam oldinda, qurolini mahkam ushlagancha dadil qadam tashlab borardi. Yelkasidagi yo'l xaltaga qor zarralari ingan. Oyoq tashlashlari keng. Uning izlarini terib, ortidan boryapman.

– Sovuq edi-da, – dedim o'zimni oqlab.

Keyin chap qo'limdagi kurtkani tag'in yelkamga ilib oldim. Ammo qavat-qavat kiygan kiyimlarim erkin harakatlanishimga to'sqinlik qilayotgandi.

Alishoh gapimni eshitmadimi, yoki o'zini shunday tutdimi, ishqilib, indamay ildamlayverdi. Ko'p yurmay, tog'lar orti qizara boshladi. Soy ichida hamon tuman kezmoqda.

Pastroqdagi shoxlari yaxlab, egilgan qora do'lana g'ira-shirada yanada bahaybatroq bo'lib ko'rinardi. Narigi betdagi archazor mum bilan qotirib qo'yilgan son-sanoqsiz lashkardek taassurot qoldirardi kishida.

– Yo'lingizdagi yuk, yo'ldoshingizga taalluqli emas? – dedi III darajali serjant yana tilga kirib.

Hamrohining oxirgi aytgan gapi tog'lar orasida yanada og'irroq va alamli yangradi. Ovchining daydi o'qi tekkan kiyikdek to'lg'anib ketdim. Biroz oldin qaynagan suvdek bug' chiqarayotgan tanamda daf'atan titroq turdi. Qadamlarimni sekinlatdim. Go'yo yelkamdagi yuk emas, qalbimdagi o'ylar og'irlashib borayotgandek edi-da, aka. Qolaversa, bu yerdagi hislar insoniy emasdi: allaqanday tushunarsiz va mutlaqo menga begona.

– Buni ustozlarimiz aytgan, – dedi u so'zida davom etib. – Keyinchalik biz – safdoshlarimiz bilan juda ko'p bor amaliyotda boshdan o'tkazdik.

U shunday deb to'xtadi-da, butun gavdasi bilan men tomonga o'girildi. Ana shunda Abdullayevning yuzi sovuqdan bujmayganini yaqqol ko'rdim. Biroq bu mutlaqo uning uchun tabiiy holdek juda xotirjam va allaqanday bepisandlik bilan boqardi.

– O'z yukimni o'zim ko'tarishga odatlanganman, – dedim norozi ohangda. Keyin uning yonidan o'tib, oldinda boraverdim.

“VATAN DEYA JON BERMADIM, LEK JON OLISHIM MUMKIN VATAN DEB!”

Ketyapman-u, negadir soy borgan sari torayib qolayotgandek edi. Nafasim ham o'pkamga tiqila boshladi. Osmon pastlaganga o'xshardi. Oyoqlarimni mutlaqo nazorat qilolmay qoldim: toyib-toyib, turtinib-turtinib ketyapman.

– Xafa bo'lmasangiz, oldinda men yura qolay, – dedi III darajali serjant yelkamdan ushlab. – Har holda bu yo'llarning erkanishiga ko'nikib ketganmiz.

Bir so'z demay, yo'l bo'shatdim. Alishohning qomati oldinda qat'iyat bilan siljir, uning har bir qadami bu yo'lni ming bor bosib o'tgan odamga xos ishonch bilan tashlanardi. Oyog'im ostidagilar: tuproq, mayda toshlar va qor mana endi qadamlaringa qarshi chiqib, pastga – zax tortgan yer qariga tortardi. Bu go'yo o'tmishdagi ikkilanishlar, xatolar, qilmishlar va manmansiragan ruhimni majaqlashga, aytib ulgurolmagan so'zlar mudom soyadek ergashib kelayotganga o'xshardi.

Chimyon tomondan o'rmalagan shamol yanada qattiqroq yuvulladi. So'ng o'q ovozi eshitildi. Uni darrov tanidim – merganlik miltig'ining tepkisi bosilgandi. Bu bizdan oldin chiqib ketgan guruhning mashg'ulotlari boshlanganidan darak berardi. Kun ham ancha ochildi. Endi hamma narsani yaqqol ko'rish mumkin: archalar, qayrag'ochlar va qoyalarni qalin qor qoplagan. Soydagi suv usti ham muzlab yotibdi.

Chap tomondagi nishabroq qoya qarshisida saf tortgan harbiy xizmatchilar quroldoshlarining vazifalarni bajarishlariga ko'maklashmoqda. Kimdir tepadagi toshga bog'langan arqonning narigi tomonini mahkam ushlab, sherigimni muhofaza etib turibdi. Boshqa birov ehtimoliy xavfni bartaraf etish uchun atrofnı kuzatib, komandirga ma'lumotlar yetkazyapti. Tag'in o'q ovozi charaqlab ketdi. Bu safar porox hidi dimog'imgacha yetib keldi.

– Nishon tumanda birdan ko'rinmaydi-da, – dedi Alishoh tumshug'ini biroz ko'tarib. Uning ko'zlarida xavotir bor edi. – Lekin mergan bu omillar qarshisida ham yo'l topa olishi kerak.

– Tug'ma qobiliyat zarur, deng, – dedim og'zimni katta ochib, o'pkamni to'ldirib nafas olgancha.

Keyin tizzalarim qaltiraganini his qildim. Toliqish borgan sari zo'rayib ketayotgandi. Og'irligimni chap oyoqdan, o'ngiga tashladim-u, biroq bu kor qilmayotgandi. Tanam ham sovuqdan mana endi qaqshay boshlagandi.

– Ko'zingiz ostidagi ko'k avvaldan bormidi? – Abdullayevning yuzida tag'in xavotir paydo bo'ldi.

– Hech qayeringiz og'rimayaptimi?

Chap qo'lim bilan sovuqdan tortilgan yuzimni siladim. Lekin bu harakatim battar tanamga ozor yetkazdi.

– Ehtimol, – dedim o'zimni xotirjam tutishga harakat qilib.

Tepadan halloslab, toshdan toshga yengil oyoq qo'yib, qor kechib kelayotgan harbiy xizmatchi yonimizdan o'qday o'tib, simli to'siq ostiga kirdi-da, emaklab, zum o'tmay, narigi tomondan otilib chiqdi. Keyin boshqa topshiriqni bajarishga kirishdi. Uning qo'llariga ko'zim tushdi: qizarib ketgandi. Egni ham nam tortgani ko'rinib turardi. Biroq yigit bo'ynidagi qurolini mahkam ushlagancha, navbatma-navbat vazifalarni jon-jahdi bilan ado etayotgandi.

– Bu yerdagi har tosh, aslida qondoshimizga aylangan, – dedi Alishoh past ovoqda. – Go'yo qaldirg'och o'z ini uchun sadoqat qasamini ichishiga o'xshaydi, hammasi.

U so'nggi so'zini iftixor bilan aytdi. Nafasi hamon barqaror edi.

Biz yana yurib ketdik. Men qadamimni hamrohimga iziga mosladim. Qorga botgan har bir iz go'yo qasamdek muhrlanar, bu yo'ldan qaytish yo'qligini eslatardi.

– Yo'lning qadrini, shu yo'lda sodiq turgan yo'lovchidan so'rang, deyishadi – dedim pastga – adog'i yo'q kengliklarga ko'z tikkancha.

– Men uchun har bir yo'lning o'z xotirasi bor.

Ayniqsa, qayta-qayta bosilsa, odamni tanib qoladi-da.

– Yo'l ham odamni taniydimi?

– Tanimasa, bu qadar bizni ayamas edi, – dedi u kulimsirab. – Harbiylar uchun mashaqqat – o'zimizni chuqur anglash demak.

Qarshimizdagi qoyalar ola-bula tusga kirgandi. Tog'lar ortidan mo'ralayotgan quyosh nuri kumushday yaltirab, soyalarni parchalab, azaliy tortilgan chegarani o'chirib yuborayotgandek edi. Uzoqda – balandlikda, Chimyonning qoraygan savlati ko'rinar, u go'yo sukut saqlagan donodek, bizni – Alishoh ikkimizni o'ziga chorlayverardi.

– Qo'rqmaysizmi?

– Qo'rqish? – dedi hamrohimga savolga savol bilan javob berib. Keyin: – Bu haqda hech o'ylamagan ekanman. Balki qo'rquv yuk bo'lgani uchun ham bu xususda bosh qotirmagan bo'lsam kerak.

U juda xotirjam edi. Biroq uning oxirgi so'zlari mening ichimga chuqur o'rnamshib oldi. O'zim bilan olib kelgan o'ylarimni, shubhalarimni esladim. Balki shuning uchun ham qadamlarim og'ir, nafaslarim qisqa, ko'zlarim nursiz bo'lgandir?

Tog'lar orasidagi bu yo'l endi oddiy so'qmoq emasdi: u harbiy burchning o'ziga aylanib borayotgandi.

Shunday, aka. Bu voqeaga ham ancha bo'ldi. Keyin Alishoh ko'p musobaqalarda o'zini ko'rsatganini eshitdim. Dengiz ortiga borib, ha, AQShda bo'lib o'tgan bahslarda g'alaba qozondi – “Eng ilg'or jangchi” maqomini oldi. Eh, uning natijalarining sanog'i yo'q aslida. Ammo biror marotaba maqtanib gapirganini eshitmadim. Albatta, bu fe'l-atvor va tarbiyaga bog'liq. Vatanni so'zda emas, amalda sevadigan yigit u.

Shoir aytganidek:

*Vatan deya jon bermadim, lek
Jon olishim mumkin Vatan deb!*

Aytgancha, yaqinda o'zini tag'in uchratdim. Hamon o'zgarmagan: baquvvat, chayir va diqqatli. So'zlaridagi yuksaklik yanada ortgan, qarashlari ham o'tkirlashibdi.

– “Jasorat” medaliga loyiq topildim, – dedi u lablariga tabassum yugurib. Keyin birdan sariq yuzi cho'g'dek qizardi.

– Jasoratlilar mudom shunga loyiq, – dedim.

Ha, u harbiy xizmatchilarga beriladigan yuksak davlat mukofotiga munosib ko'rilgan. Albatta, bu uning tinimsiz qilgan mehnati, chekkan zahmati, mashaqqati, yurtning tuprog'ini muqaddas bilgani, sevgani, himoyada mudom sobitligi uchun katta rag'bat bo'ldi-da.

Bugungi gurungimni shu yerda tugatmoqchiman, aka. Kamina Alishoh bilan bo'lib o'tgan suhbatdan so'ng ancha vaqtgacha o'zimni angamay yurganman. Miyam ichiga allaqanday qovog'ari in qurib olganga o'xshab yuribman. Keyin hamma qadamlarimni taftish etayotganim ham bor gap. Xatolarimni bir boshdan titib chiqishga urinyapman-u, ammo bunga jur'atim yetmayapti. Nimadandir qo'rqyapman. Ehtimol, haqiqatlarim cho'chitayotgandir? Yana bilmadim. O'zi umuman, hayotda har kimning o'z haqiqati bor, deyishadi-ya? Faqat ana shu xulosalarga yanglish kelinmasa bo'lgani. Boisi bu to'xtam sizning asl kimligingizdan so'zlaydi. Ko'zingiz ichiga cho'kkan shafqat yoki qahr kun kelib, o'zini namoyon etishi aniq. Darvoqe, vaqti-vaqti bilan aslingiz o'z-o'zingizda ko'rinib turadimi, aka?

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”

Hozirgi kunda dunyodagi murakkab geosiyosiy vaziyat va yuzaga kelayotgan turli tahdidlar har bir davlat oldiga, avvalo milliy armiyasining kuch-qudratini yanada oshirish, saflardagi harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini yuksaltirish, yangi taktik harakatlarni qo'shinlarda joriy etish, jang olib borish usul va uslublarini ishlab chiqish talablarini qo'ymoqda.

Shundan kelib chiqib, Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan so'nggi yillarda xavfsizlik va tinchlikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari boshchiligida boshqa sohalar qatorida milliy armiyani ham isloh qilish, qo'shinlarning tashkiliy tuzilmasi va dislokatsiya tizimini takomillashtirish, ularni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan jihozlash, shuningdek harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi, shayligi va kasbiy mahoratlarini oshirilmoqda. Jangovar tayyorgarlik dasturlari zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilib, harbiy xizmatchilarning amaliy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Qurolli to'qnashuvlarni chuqur tahlil qilish va yetakchi xorijiy davlatlar armiyalarining ilg'or tajribalarini o'rganish orqali ularni qo'shinlar amaliyotiga tatbiq etish borasida ham izchil ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, harbiy qismlar bilan ma'muriy organlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, qo'shinlar va muassasalarning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishda harbiy-ma'muriy sektorlar tashkil etilishi muhim qadam bo'ldi. Prezidentimizning 2017-yildagi farmoniga muvofiq, ushbu tizim barcha hududlarda joriy etildi. Natijada dala-o'quv maydonlari, harbiy qism va muassasalar xalqaro talablar asosida qurilib, kapital ta'mirlanmoqda hamda zamonaviy vositalar bilan jihozlanyapti.

Jumladan, poligonlarda keng ko'lamli qurilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Bundan tashqari, Mudofaa vazirligi huzurida Modellastirish va simulyatsiya dala-o'quv markazi, Tog' tayyorgarligi o'quv mashqlar markazi, Merganlar tayyorlash markazi kabi

ixtisoslashgan o'quv muassasalari tashkil etilib, harbiy xizmatchilarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Qo'shinlarning jangovar shaylik darajasini yuksaltirishda Qurolli Kuchlar va Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkazilayotgan ko'rik-tanlov hamda musobaqalar ham muhim o'rin tutadi. "Men g'olib!" shiori ostida tashkil etilayotgan "O'z kasbining ustasi", "Eng ilg'or mutaxassis", "Eng ilg'or mergan", "Amir Temur jangovar bayrog'i uchun" kabi ko'rik-tanlovlar, "Dovyurak jangchi" farqlovchi nishoni uchun sinovlar, shuningdek harbiy xizmatchi ayollar o'rtasidagi "To'maris" tanlovi jangovar ruh va raqobat muhitini yanada kuchaytirmoqda.

Amalga oshirilayotgan bu tadbirlar qisqa fursatlarda xalqaro arenalarda ham o'z samarasini bera boshlagani kishini quvontiradi. Xususan Koreyada o'tkazilgan "Xalqaro ilmiy jangovar tayyorgarlik" musobaqasida yurtimiz himoyachilari 13 davlat orasida faxrli 1-o'rinni egalladi.

MILLIY ARMIYA —



ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!



Shuningdek, 2025-yil Buyuk Britaniyada bo'lib o'tgan "Kembriya patruli – 2025" xalqaro musobaqasida 30 dan ortiq davlatdan 150 dan oshiq jamoa ishtirok etib, unda o'g'lonlarimiz kumush medalni qo'lga kiritdi.

2025-yilning birinchi yarmi ham milliy armiyamiz uchun omadli kechdi. Aprel oyida Pokistonda bo'lib o'tgan VIII Xalqaro "Jamoaruhi" musobaqasida yurtimiz jamoasi 14 davlat va 31 jamoa orasida faxrli 1-o'rinni egallab, Vatanimiz bayrog'ini mag'rur ko'tarishga muvassar bo'ldi. Yakuniy natijalarga ko'ra, O'zbekiston 95 foiz ko'rsatkich bilan birinchi, Xitoy jamoasi 74 foiz bilan ikkinchi va Bahrayn 65 foiz natija bilan uchinchi o'rinni egalladi.

Shuningdek, may oyida Turkiyaning Isparta shahridagi "Kommandos" tog' o'quv-mashqlar markazida o'tkazilgan "5-Eng ilg'or merganlar jamoasi" musobaqasida ham yurtimiz terma jamoasi to'rtinchi marotaba faxrli 1-o'rinni qo'lga

kiritdi. Bu o'tgan yillardagi rekordlar bilan qiyoslaganda ham, harbiy xizmatchilarimiz professional malaka va jangovar tayyorgarlikda sezilarli rivojlanganini ko'rsatmoqda.

Xalqaro hamkorlik doirasida Fransiya, Italiya, Ozarbayjon, Belarus, Qozog'iston va Turkmaniston harbiy xizmatchilari Tog' tayyorgarligi, Merganlar va Cho'l sharoitidagi maxsus markazlarda o'qitildi. Poligonlarda zamonaviy qurolli to'qnashuvlarning taktik pog'onadagi harakatlarini rivojlantirish maqsadida "Motodrom" yo'lagi barpo etilib, u yerda mototsikl, kvadrosikl va boshqa transport vositalari orqali tezkor ishg'ol harakatlari bajarilmoqda.

Qo'shinlarimizda 351 nafar xalqaro toifadagi sportchi va 32 nafar murabbiy faoliyat yuritib, 2025-yilda 202 ta xalqaro va 201 ta respublika miqyosidagi musobaqada 692 ta medal qo'lga kiritildi. Ular orasida Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari ishtirokchilari, Jahon va Osiyo chempionlari hamda xalqaro musobaqalar g'oliblari bor. Xalqaro musobaqalarda 91 ta oltin, 59 ta kumush va 68 ta bronza medali, respublika musobaqalarida esa 118 ta oltin, 69 ta kumush va 69 ta bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Shuningdek, o'tgan yilning 17-20-avgust kunlari Samarqandda ilk bor triatlon bo'yicha harbiylar o'rtasida o'tkazilgan XXV jahon chempionatida 13 davlatdan 120 nafar sportchi ishtirok etdi. Unda O'zbekiston terma jamoasi (8 nafar) faxrli 3-o'rinni egalladi. Hozirda 100 dan ortiq sportchilarimiz xalqaro musobaqalar va Los-Anjeles Olimpiadasi litsenziyalari uchun tayyorgarlik ko'rmoqda.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohot va tashabbuslar milliy armiyaning barqaror rivojlanishi hamda mamlakat xavfsizligini ta'minlashda ishonchli va mustahkam tizimni shakllantirmoqda. Vatan himoyachilarini tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar asosida yuqori samaradorlikka erishilib, harbiy xizmatning mazmun-mohiyati yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, xalqaro hamkorlik, qo'shma mashg'ulot va musobaqalar orqali harbiy xizmatchilarning kasbiy mahorati, jangovar tajribasi va intellektual salohiyati izchil ravishda yuksalmoqda.

Bu esa O'zbekistonning nafaqat milliy, balki mintaqaviy va global xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlarida muhim va munosib o'rin tutayotganini yaqqol namoyon etadi.

TAHRIRIYAT



Suratlar tahririyat arxividan olindi

Tavsiyanoma – muhim imtiyoz

Bugun mamlakatimizda muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan yoshlarga xizmatni tamomlagandan so'ng biron-bir kasbni egallashi va bilim darajasini oshirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yilning 13-yanvar kuni o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ham bu borada alohida fikrlar bildirildi. Muddatli harbiy xizmatchilarga armiyada kamida bitta kasb egasi bo'lib chiqishi bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilib, askarlarni kasbga tayyorlash bo'yicha 3–6 oylik dasturlar ishlab chiqilishi va dasturni yakunlagan yigitlar malaka imtihonidan o'tkazilib, ularga kasb sertifikati beriladi. Shuningdek, askarlar "Bir million dasturchi" va "Besh million sun'iy intellekt yetakchisi" dasturlari doirasida o'qitilishi belgilandi.

Bundan tashqari o'g'lonlarga muddatli harbiy xizmatni o'tash davrida harbiy qismning o'zida oliygohga o'qishga kirish uchun imtihon topshirish imkoniyati yaratilishi, test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib, talabalikka qabul qilingan askarlar muddatli harbiy xizmat yakunlanishi bilan oliygohda o'qishini boshlashi mumkin. Shu bilan birga, armiyadan qaytib, oliy o'quv yurtlarida tahsil olmoqchi bo'lgan yoshlarga xorijiy til va fan sertifikatini olish xarajatlari qoplab berilishi ta'kidlandi.

Prezidentimiz tomonidan yaratilayotgan mana shunday imkoniyatlar yoshlar orasida vatanparvarlik tuyg'ulari oshishiga hamda mamlakat taqdiriga befarq bo'lmagan, mustaqil fikrlaydigan,



yurt ravnaqi yo'lida mas'uliyat bilan harakat qiladigan fidoyi avlod shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Muddatli harbiy xizmatchilarga oliy o'quv yurtlariga kirish uchun berilayotgan imtiyozli tavsiyanomalar ham davlatimiz

G'ALVIRNI SUVDAN KO'TARISH VAQTI



rahbarining ularga yaratib berilayotgan imkoniyatlardan biridir. Bugungi kunda ushbu tavsiyanomalar orqali minglab yoshlar hayotda o'z yo'lini topib, yurt ravnaqi yo'lida munosib hissalarini qo'shib kelmoqda.

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida muddatli harbiy xizmatchilar



Bahrom ABDURAHIMOV suratga olgan

tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar ishtirokida umumta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalaridagi o'quv dasturlarini inobatga olgan holda tuzilgan.

– Bugun muddatli harbiy xizmatchilarning shu vaqtgacha olgan bilimlari, o'rganganlari sinovdan o'tkazilmoqda, – deydi podpolkovnik Xolmuhammad Jo'raboyev. – Test



o'rtasida ushbu tavsiyanomalar uchun sinov jarayonlari bo'lib o'tdi. Test sinovlari askarlarning jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik fanlarini qay darajada o'zlashtirgani Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan tekshirilmoqda.

Shuni alohida aytib o'tish kerakki, matematika, fizika fanlari bo'yicha hamda mantiqiy test savollari Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan

qatnashayotgan askarlarning aynan o'zlari sinovlarda ishtirok etayotganini aniqlash maqsadida Face ID tizimi ham yo'lga qo'yilgan. Bu esa har bir ishtirokchining bilimi xolis va adolatli baholanishini ta'minlaydi. Sinov natijalari esa belgilangan tartibda umumlashtirilib, eng munosib askarlarga oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli ravishda kirish imkonini beruvchi tavsiyanomalar taqdim etiladi.

Test savollarining umumiy soni 100 ta bo'lib, uning 40 tasi

jangovar tayyorgarlik, 20 tasi ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, 10 tasi matematika, 10 tasi fizika fani bo'yicha va qolgan 20 tasi mantiqiy savoldan iborat.

Jangovar tayyorgarlik bo'yicha berilgan savollarning har bitta to'g'ri javobi uchun 1,2 ball,



jarayonlari mutlaqo shaffof tarzda tashkil etilyapti. Jarayonlar bo'layotgan xonalarga kameralar o'rnatilib, nazoratchi xodimlar jalb etilgan. Bundan tashqari testda

ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik bo'yicha 1,1 ball va qolgan fanlarning barchasiga 1 balldan beriladi.

Test sinovlari uchun ajratilgan umumiy vaqt 3 soat bo'lib, barcha savollarga berilgan to'g'ri javob orqali maksimal 110 ballni qo'lga kiritish mumkin.

Bugun ishtirokchilardan tavsiyanomani qo'lga kiritish uchun bilim, ko'nikma va imkoniyatlarini ishga solishi talab etiladi. Belgilangan 3 soat davomida 100 ta savolga javob topish – shunchaki savollarga javob topish emas, balki har bir yigitning kelajakka qadam qo'yishi uchun berilgan imkoniyat. Ana shu qisqa vaqt ichida o'zlashtirilgan bilimlar sinovdan o'tadi, qat'iyat va tayyorgarlik esa hal qiluvchi omilga aylanadi.

– Test savollari men uchun qiyinchilik tug'dirmadi, – deydi muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Javohir Jumaniyozov.

– Jarayonlar shaffof va haqqoniy tarzda bo'lib o'tdi. Tavsiyanomani qo'lga kiritish, oliy harbiy ta'lim muassasasiga hujjat topshiraman. Maqsadim – Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"**



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH: SIYOSIY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL TAHLIL

Korrupsiya masalasi XXI asrda davlatlar barqarorligi va milliy taraqqiyot uchun eng jiddiy tahdidlardan biriga aylandi. U faqat huquqbuzarlik sifatida emas, balki davlat boshqaruvi samaradorligi, iqtisodiy o'sish sur'atlari va jamiyatda adolat tamoyillariga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda davlat institutlariga ishonch past, investitsion muhit esa beqaror bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlament va o'zbek xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosati darajasida eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab berildi. Ushbu Murojaatnoma mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, davlat boshqaruvida ochiqlik, hisobdorlik va javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan.

Korrupsiyaning siyosiy mohiyati va davlat hokimiyatiga ta'siri. Siyosiy jihatdan korrupsiya davlat hokimiyatining legitimligini zaiflashtiradi, qonun ustuvorligi tamoyiliga putur yetkazadi va qaror qabul qilish jarayonlarini tor manfaatlar ta'siri ostiga qo'yadi. Bunday sharoitda davlat siyosati umummilliy manfaatlardan ko'ra alohida guruhlar manfaatiga xizmat qilib qolish xavfi ortadi. Murojaatnomada korrupsiyaga qarshi murosasiz pozitsiya e'lon qilinib, mansabdor shaxslar faoliyatida shaxsiy manfaat va xizmat vakolatlari o'rtasidagi chegara aniq belgilab berildi.

Korrupsiya va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Iqtisodiy nuqtayi nazardan korrupsiya byudjet mablag'larining samarasiz sarflanishi, davlat xaridlarida raqobatning buzilishi va soya iqtisodiyoti ulushining ortishiga olib keladi. Bu holat yalpi ichki mahsulot o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Murojaatnomada iqtisodiy ochiqlik va investitsion jozibadorlikni oshirish korrupsiyaga qarshi kurash bilan bevosita bog'liq ekani ta'kidlandi.

Raqamlashtirish va korrupsiya xavflarini kamaytirish. Zamonaviy davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalar korrupsiyaga qarshi kurashda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Davlat xizmatlarini elektron formatga o'tkazish, ruxsat berish va litsenziyalash jarayonlarini avtomatlashtirish inson omilini minimallashtirib, korrupsiya xavflarini keskin kamaytiradi. Murojaatnomada raqamli davlat konsepsiyasini chuqur joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Institutsional islohotlar va ichki nazorat tizimlari. Korrupsiyaga qarshi samarali kurash institutsional barqarorlikni ta'minlashni talab qiladi. Bu borada ichki nazorat, komplayens va risklarni boshqarish tizimlari korrupsion holatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Murojaatnomada davlat organlarida ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Jamiyat, fuqarolik nazorati va huquqiy madaniyat. Korrupsiyaga qarshi kurash faqat davlat organlari doirasida cheklanib qolmasligi lozim. Fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va faol fuqarolar davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali shaffoflik va ochiqlikni ta'minlaydi. Murojaatnomada huquqiy madaniyatni yuksaltirish va halollik qadriyatlarini jamiyat hayotiga chuqur singdirish strategik vazifa sifatida belgilandi.

Sherzod MURODOV,
Mudofaa vazirligi
korrupsiyaga qarshi ichki
nazorat bo'limi boshlig'i
o'rinbosari



E'tibor va g'amxo'rlik

ISLOHOTLAR SAMARASI



Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlash, milliy armiyamizni har tomonlama rivojlantirish hamda harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolari uchun munosib hayot sharoitlarini yaratish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida izchil amalga oshirib kelinmoqda. Zero yurt tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi va barqaror taraqqiyot, eng avvalo, Vatan himoyachilarining sadoqati, fidoyiligi hamda mustahkam ijtimoiy himoyasi bilan chambarchas bog'liqdir.



qulay yashash sharoitlarini yaratish, zamonaviy infratuzilmaga ega uy-joylar barpo etish masalasiga alohida ahamiyat qaratilayotgani bejiz emas. Chunki xizmat burchini sidqidildan ado etayotgan harbiy xizmatchining oila a'zolari farovonligi, ijtimoiy barqarorligi uning xizmatga bo'lgan mas'uliyati va fidoyiligini yanada oshiradi.

Jizzax, Samarqand va Navoiy garnizonlarida harbiy xizmatchilar



Davlatimiz rahbarining tashabbusi va qat'iy siyosiy irodasi asosida so'nggi yillarda harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularning xizmat faoliyati va turmush sharoitlarini tubdan yaxshilash, munosib va barqaror yashash tarzini ta'minlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun



davomida yangi xonadonlar kalitlari o'z egalariga tantanali tarzda topshirildi.

Shuningdek, Samarqand viloyati mudofaa ishlari boshqarmasining yangi, zamonaviy binosining foydalanishga topshirilishi mamlakatimiz mudofaa tizimini yanada mustahkamlash yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Ushbu bino davlatimiz rahbarining yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni milliy armiyamiz saflarida munosib xizmat qilishga tayyorlash, harbiy xizmatni tashkil etishda ilg'or va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish borasidagi ustuvor vazifalarining amaliy ifodasidir.

Yangi bino ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu yerda chaqiriluvchilar bilan ishlash, hujjatlarni rasmiylashtirish, tibbiy ko'rikdan o'tkazish va boshqa xizmatlar yagona elektron tizim asosida tashkil etilgan.

Ochilish marosimida so'zga chiqqanlar yangi bino mudofaa tizimi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishini ta'kidladi. Xususan, yaratilgan shart-sharoitlar chaqiriluvchilarni sifatli va shaffof tibbiy ko'rikdan o'tkazish, ularning salomatligini to'liq baholash, milliy armiyamiz saflarini jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, Vatanga sadoqatli yoshlar bilan to'ldirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi qayd etildi.

Umuman olganda, harbiy xizmatchilar uchun barpo etilayotgan zamonaviy uy-joylar, mudofaa tizimi infratuzilmasini tubdan yangilash, xizmat faoliyatini zamon talablari asosida tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar Yangi O'zbekistonning kuchli va qudratli armiyasini shakllantirish yo'lidagi izchil islohotlarning yaqqol ifodasidir.

Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati
bosh mutaxassisi



hamda ular oila a'zolari uchun mo'ljallangan, zamonaviy loyiha asosida bunyod etilgan yangi uy-joylar foydalanishga topshirildi. Bugungi kun talablari asosida qurilgan mazkur turarjoylar barcha muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, qulay rejalashtirilgan xonadonlar, bolalar maydonchalari va ijtimoiy infratuzilma obyektlari bilan to'liq ta'minlangan.

Yangi uy-joylarni foydalanishga topshirish marosimida mahalliy hokimiyat vakillari, Qurolli Kuchlar faxriylari, harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari ishtirok etdi. Bayramona ruhda o'tgan tadbir





MUNOSIB XIZMAT VA TURMUSH SHAROITLARI

**Toshkent viloyati
Bo'stonliq tumanining
Xumson aholi yashash
punktida sarhadlarimiz
daxlsizligini ta'minlab
kelayotgan harbiy
xizmatchilar uchun yangi,
zamonaviy Chegarani
qo'riqlash vzvodi barpo
etilib, foydalanishga
topshirildi.**

Karnay-surnay sadolari ostida boshlangan yangi binolarning tantanali ochilish marosimida Bo'stonliq tumani hokimi, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari mas'ullari, faxriylar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda so'z olganlar bu kabi zamonaviy binolar barpo etilishi avvalo davlatimiz rahbarining Qurolli Kuchlar tizimiga bo'lgan yuksak e'tibor va ishonchi, qolaversa "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlarning yorqin namunasi ekanini alohida ta'kidladi.

Shundan so'ng intiqib kutilgan lahzalarga navbat yetib, Chegarani qo'riqlash vzvodi ma'muriy binosi hamda uning yonida qad rostlagan xizmat xonadonlarining kalitlari o'z sohiblariga topshirildi.

Mehmonlar yangi binolar bilan yaqindan tanishar ekan, bu yerda olib borilgan bunyodkorlik ishlaridan, yurt himoyachilari hamda ular oila a'zolari uchun yaratilgan imkoniyat va qulayliklardan nihoyatda mamnun bo'ldi.

Zamonaviy talablar asosida barpo etilgan ikki qavatli ma'muriy binoda harbiy xizmatchilar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik xonalari, ko'plab kitoblarga ega bo'lgan axborot-resurs markazi, xizmat xonalari, sportzal,

oshxona, tibbiy punkt hamda dam olish xonalari shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, harbiy shaharchada barpo etilgan keng, yorug', shinam xizmat xonadonlarida sarhadlarimiz himoyachilari oilalari bilan birgalikda baxtli hayot kechirishlari uchun hamma shart-sharoit va qulayliklar muhayyo.

Ahamiyatlisi, hududda tikuvchilik sexi faoliyati ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, endilikda yurt himoyachilarining turmush o'rtoqlari buyurtma asosida harbiy liboslar tikish orqali o'zlarining bandliklarini ta'minlash imkoniga ham ega bo'ldi.

Ushbu shaharchadagi qulayliklardan yana biri chegarachilar farzandlari uchun ta'lim-tarbiya maskanining barpo etilganidir. Ya'ni bu yerda Bo'stonliq tumanidagi 20-umumta'lim maktabigacha ta'lim tashkilotining qisqa muddatli guruhi o'z faoliyatini olib bormoqda. Quvonarlisi, bog'chada bolajonlar uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, ularning sifatli ta'lim-tarbiyasi hamda xavfsizligi to'liq ta'minlangan.

– Biz tog'li hududda xizmat qilamiz. Albatta, bu yerning o'ziga xos relyefi, tabiati bor. Qolaversa, ko'p hollarda ob-havoning inijliklariga ham guvoh bo'lamiz. Mana shunday sharoitda biz uchun har tomonlama qulay bo'lgan xizmat binolari va turarjoylarning qurib berilishi nafaqat bizni, balki oila a'zolarimizni ham nihoyatda mamnun qildi. Chunki ular shu yerda, biz bilan birga istiqomat qiladi. Yaratilayotgan bunday sharoitlar uchun barcha safdoshlarim, qolaversa oilam nomidan Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoniga o'z minnatdorligimni bildiraman, – deydi III darajali serjant Bekjon Yo'ldoshev.

Albatta, bu kabi zamonaviy inshootlarning foydalanishga topshirilishi yurt himoyachilari hamda ular oila a'zolari uchun munosib xizmat va turmush sharoitlarini yaratishda muhim o'rin tutib, azamatlarni yangi-yangi marralar sari undayveradi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



MUDOFAA VA XAVFSIZLIK SOHASIDAGI TAHLIL MARKAZLARI

Rivojlangan mamlakatlarda 1970-yillardan boshlab davlat siyosati, mudofaa va xavfsizlik sohaslarida tadqiqotlar olib boruvchi muassasalar soni ko'paya boshladi va bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlarida 11 500 dan ortiq ana shunday tahliliy markaz faoliyat olib bormoqda. "Aql markazlari" sonining va ularga bo'lgan talabning o'sishi globallashtirish, yer yuzida turli konflikt va to'qnashuvlar sonining ortishi, ularda muntazam va nomuntazam kuchlarning qo'llanilishi, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi, siyosiy masalalarning murakkabligi va o'z vaqtida hamda aniq tahlil qilish uchun yangi talablar paydo bo'lishi tufayli yuzaga keldi.

Bugungi kunda "aql markazlari" davlat va jamiyat boshqaruvi, fan va texnologiyalarning deyarli barcha sohalari qatori **mudofaa va xavfsizlik** yo'nalishida alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Xususan, 2021-yilning yanvarida AQShning Pensilvaniya universiteti tomonidan e'lon qilingan 2020-yil uchun dunyo miqyosidagi eng yaxshi "aql markazlari" indeksida sohalari kesimida jahondagi eng ko'p tahliliy markazlar faoliyat yuritadigan yo'nalish "Tashqi ishlar va mudofaa siyosati" (1 426 ta) ekani qayd etilgan.

Aytish joizki, mamlakatimizdagi "aql markazlari"dan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti hamda Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi o'z faoliyati doirasida mintaqaviy xavfsizlik va qisman bo'lsa-da mudofaa masalalarini tadqiq etish bilan shug'ullanib keladi.

Bugungi kunda jahondagi eng kuchli armiyalar reytingida yetakchilik qilayotgan qator mamlakatlarning mudofaa muassasalari huzurida mudofaa tizimini takomillashtirish, kadrlarni saralash, jalb etish va tayyorlash, Qurolli Kuchlarni qo'llashni strategik rejalashtirish, zamonaviy boshqaruv, jangovar tayyorgarlikni kuchaytirish, yangi qurol-yarog' va harbiy texnikalarni loyihalashtirish va mavjudlarini modernizatsiya qilish masalalari yuzasidan takliflar ishlab chiqishga ixtisoslashgan "aql markazlari" doimiy asosda faoliyat yuritib kelmoqda.

Mudofaa sohasidagi tahlil markazlari faoliyati bo'yicha xorij tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi kunda jahonning eng kuchli tahliliy markazlari

reytingida 7-o'rinda hamda mudofaa va xavfsizlik masalalarida 1-o'rinda bo'lgan AQShdagi **"RAND Corporation"**ni olish mumkin. Mazkur "aql markazi" dastlab Amerika Harbiy havo kuchlari qo'shinlari uchun samolyotlar, raketa va sun'iy yo'ldoshlar ixtiro qilish maqsadida yaratilgan bo'lib, hozirda ham faoliyatining asosiy buyurtmachisi AQSh Mudofaa departamenti hisoblanadi. Markaz rasman 1948-yilning 14-mayida Kaliforniyaning Santa-Monika shaharchasida tashkil etilgan. Uning shtati 300 nafar xodimni, yillik byudjeti esa taxminan 2 mln dollarni tashkil etgan.



"RAND Corporation"ning tarkibiy tuzilishi turli masalalarni o'rganishga ixtisoslashgan Avstraliya, Yevropa, ta'lim va mehnat, sog'liqni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik kabi bir nechta tadqiqot bo'linmalaridan iborat. Shular qatorida AQSh armiyasi tadqiqotlar bo'limi va AQSh Harbiy havo kuchlari loyihasi bo'limlarining mavjudligi diqqatga sazovor. Ya'ni tashkilot tomonidan davlat ichki va tashqi siyosatining qator masalalari hamda jamiyatdagi dolzarb muammolar bilan bir qatorda, AQSh Mudofaa vazirligi va Harbiy havo kuchlari faoliyatini

yanada takomillashtirish masalalari ham alohida o'rganiladi.

"RAND Corporation"ning AQSh armiyasi tadqiqotlar bo'limi "RAND Arroyo Center" deb nomlanadi va u AQSh armiyasining federal byudjetidan moliyalashtiriluvchi yagona ilmiy tadqiqot markazi hisoblanadi.

Markaz quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritadi:
"Strategiya, doktrina va resurslar" dasturi armiyada yuzaga kelayotgan strategik kontekstni tushunishga, tashqi talablarni aniqlashga va ularga moslashishga hamda o'z resurslaridan foydalanishni optimallashtirishga yordam beradigan tadqiqotlar olib boradi;

"Qo'shin va ta'minot" dasturi zamonaviy texnologiyalar, menejment amaliyoti va tashkillashtirish nazariyasidagi yutuqlarni Qurolli Kuchlar bo'linmalariga qay tarzda moslashtirish hamda bu orqali dushman kuchlari bilan hozirda va kelajakdagi ehtimoliy to'qnashuvlarda operatsion samaradorlikni oshirish, bo'linmalarni moddiy-texnik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish va sifatli texnik xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun qanday qo'llash mumkinligini tahlil qiladi va tavsiyalar beradi;

"Shaxsiy tarkib, kadrlar tayyorlash va ularning sog'lig'ini saqlash" dasturi AQSh armiyasiga zarur mutaxassislarni jalb qilish va saqlab turishga, ularni o'z imkoniyatlarini maksimal darajada oshiradigan tarzda o'qitish va boshqarishga, inson hayotini saqlab qolish va sog'lom turmush tarzini rivojlantirishga yordam berishga yo'naltirilgan. Dasturning tadqiqot va tahlillari Qurolli Kuchlar vakillarining barchasini qamrab oladi: haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotganlar, rezervistlar, Milliy gvardiya a'zolari va harbiy xizmatga majburlar. Bugungi kunda AQSh armiyasida amalda bo'lgan jismoniy tayyorgarlik me'yorlari to'plami ham "RAND Corporation" mutaxassislari bilan hamkorlikda yaratilganini esa alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Mudofaa va xavfsizlik yo'nalishida faoliyat yurituvchi tahlil markazlariga ko'plab misollar

keltirish mumkin. Ushbu toifadagi masalalarni tadqiq etuvchi "aql markazlari" Hindistonda ham mavjud va ular mamlakat hukumati tomonidan kuchli nazorat qilinadi. Mazkur markazlar faoliyatining nazorati bevosita tegishli vazirliklar va boshqa davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Buning uchun ularning vazirlari hamda kotiblari "aql markazlari" kengashlari a'zolari bo'ladi yoki "aqliy markazlar" ishiga rahbarlik qiladi (hatto "aql markazi" mustaqil tashkilot sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa ham).



Pokiston bilan 1947 va 1965-yillardagi hamda Xitoy bilan 1962-yildagi urushlar xavfsizlik va mudofaa sohasida tadqiqotlar o'tkazilishini talab qildi. Natijada Hindiston Mudofaa vazirligi 1965-yili **Mudofaa va strategik tahlil institutini** tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Shundan so'ng tashqi siyosat va xavfsizlik sohasida ishlaydigan va aksariyati poytaxtda joylashgan yana bir qator ilmiy tadqiqot institutlari paydo bo'ldi. Ayrim tahlil markazlariga davlat homiylik qiladi, boshqalari mustaqil va ba'zida mamlakat hukumati o'tkazayotgan siyosat bilan mos kelmaydigan o'z fikrini erkin bildiradi olish darajasiga erishgan. Ular orasida Hindistondagi xavfsizlik masalalarini tadqiq etuvchi **"Center for Land Warfare Studies"** (CLAWS – Quruqlikdagi janglarni o'rganish markazi)ni olish mumkin.

Mazkur tahlil markazi Hindiston Mudofaa vazirligining Istiqbolni rejalashtirish bosh boshqarmasi tarkibidagi tahliliy markaz bo'lganiga qaramasdan, xalqaro doirada ancha mashhur va tan olingan hisoblanadi.

Xususan, 2019 va 2020-yillarda AQShning Pensilvaniya universiteti tomonidan e'lon qilingan xalqaro reytingda jahondagi mudofaa va xavfsizlik masalalarini tadqiq etuvchi "aql markazlari" ichida 74-o'rinni egallagan. Ushbu "aql markazi"ning keng tanilishida uning bosma va elektron nashrlari muhim o'rin tutadi. Jumladan, CLAWS bir qator jurnallarda o'zining eng so'nggi maqolalarini chop etib boradi. "CLAWS" nomli jurnal tahririyati 2007-yilning noyabr oyidan o'z ishini boshlagan va yiliga ikki marta chop etiladi. Yana bir "Scholar Warrior" nomli jurnal 2010-yildan buyon har yili ikki marta nashr etib kelinadi. 2008-yildan o'z faoliyatini boshlagan "CLAWS Issue Briefs" jurnali esa har uch oyda bir marta nashrdan chiqariladi.

Tashkilot bunday bosma nashrlardan tashqari, o'z internet sahifasida (www.claws.in) o'zi haqidagi eng so'nggi xabarlarni e'lon qilib, ushbu "aql markazi" tomonidan chop etilgan barcha maqola, jurnal, gazeta, veb-seminar va kitoblarni shu yerda ommaga ulashib keladi.

CLAWS Hindiston tomonidan o'tkazilgan harbiy operatsiyalardan xulosa chiqarib, yutuq va kamchiliklarini o'rganib, kitoblar nashr qiladi va bu kelajak avlod yosh ofitserlari uchun dasturulamali bo'lib xizmat qiladi, markaz yosh ofitserlarga o'tmishda bo'lib o'tgan harbiy operatsiyalarda yo'l qo'yilgan xatoliklarni o'rgatib, kelajakda bunday xatolarni takrorlamaslikka undaydi. Qolaversa, jahonda yuzaga kelayotgan eng so'nggi xavfsizlik masalalari (*yaratilayotgan yangi qurollar, dronlar, raketalar*) haqida harbiylarga keng tushunchalar berib, ularga raqobatbardosh muhitni shakllantirishga undash ham CLAWS'ning ilg'or yutuqlaridan biridir.

Tashkilot tomonidan harbiy operatsiyalarga tayyorgarlik ko'rishda eng bilimli mutaxassislar logistika va ta'minot masalalari, ulardan keyingi o'rindagi bilimlilar esa operativ rejalashtirish bilan shug'ullanishlari kerakligi haqida tavsiya berilgan. Shu bilan birga, ushbu markazning yana bir tahliliy maqolasida an'anaviy urushlar XXI asrda ham mavjud bo'lishi va tanklar kelajakdagi urushlarda ham hal qiluvchi rol o'ynashi ta'kidlanadi.

Markaz ekspertlarining fikricha, "urushlar" ko'pincha siyosatchilar va ba'zi harbiy tahlilchilar tomonidan ta'kidlanganidek, "qarama-qarshilikni hal qilish instrumenti emas" degan tushuncha (*afsona*) bekor bo'ldi. Qattiq kuch ahamiyatga egaligicha qolmoqda hamda bu harbiy byudjetni qo'llab-quvvatlash va mahalliy imkoniyatlarni optimallashtirish nuqtayi nazaridan shoshilinch investitsiyalarni talab qiladi. Bundan tashqari, urushning

maqsadi dushmanni o'zining xohishini bajarishga majburlash, urush san'ati esa kam xarajat bilan qisqa vaqt ichida g'alabaga erishishdir. Aynan shu muhim omil tufayli tanklar mobil, himoyalangan o'tochar kuch sifatida jang maydonida noyob va yengilmas pozitsiyani egallaydi.

Shuningdek, Nyu-Dehlida (*Hindiston*) Mudofaa tadqiqotlari va tahlil instituti faoliyatiga hamohang tarzda Pokiston Tashqi ishlar vazirligi xalqaro munosabatlar va xavfsizlik sohalarini tadqiq etish uchun Islomobod Strategik tadqiqotlar institutini ta'sis etdi.



Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi mudofaa sohasiga ko'maklashuvchi "aql markazlari" ichida Qozog'istonda joylashgan **Harbiy-strategik tadqiqotlar markazi** faoliyati ayniqsa faolligi bilan ajralib turadi. Ushbu markazga 2008-yilda asos solingan bo'lib, hozirda Mudofaa vazirligiga qarashli aksionerlik jamiyati hisoblanadi. 2020-yildagi "Global Go To Think Tank Index Report"da Kavkaz va Markaziy Osiyodagi 65 ta tahliliy markaz orasidan 16-o'rinni egallagan (*O'zbekistondagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti* 26-o'rinda).

Markaz faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib davlatning axborot va kiberxavfsizlik, mudofaa sanoati va harbiy xavfsizligi sohalarida fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazish, milliy xavfsizlik va davlat mudofaasi sohasidagi keng ko'lamlil masalalar bo'yicha qaror qabul qiluvchi shaxslarga maslahatlar va yuqori malakali yordam berish, harbiy va ikki tomonlama mahsulotlar bo'yicha laboratoriya tadqiqotlarini o'tkazish, davlatning harbiy xavfsizligi masalalarini tartibga soluvchi qonun loyihalarini ilmiy ekspertizadan o'tkazish va boshqalarni sanab o'tish mumkin. Ushbu tahlil markazi tomonidan 2008-yilda qozoq, rus va ingliz tillarida "Sardar" jurnali, 2013-yildan "Оборонный вестник" axborot-tahliliy jurnali chop etib boriladi.

Ta'kidlash joizki, ushbu markaz Qozog'istonda va qolaversa, butun Markaziy Osiyo mintaqasida harbiy sohadagi ilmiy tadqiqotlar olib borishda yetakchilikni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Shu bois

bugungi kunda markazda mamlakat kuch tuzilmalarini boshqargan ekspertlar, mudofaa sohasida boshqaruv va ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha tajribaga ega mutaxassislar, uzoq yillik ilmiy tadqiqot olib borish tajribasiga ega xodimlar va fan doktorlari jamlangan.

Markazda 2008-yildan buyon 100 dan ortiq ilmiy tadqiqot ishi olib borilgan bo'lib, ulardan 75 foizi Qozog'iston Respublikasi milliy xavfsizligi nuqtayi nazaridan yopiq mavzularda o'tkazilgan. Shuningdek, markaz tomonidan mamlakat Prezidenti va hukumat qarorlarining 6 ta loyihasi, 26 ta o'quv qo'llanmasi yaratilgan. Markaz Jorj Marshal nomidagi Yevropa xavfsizlik masalalarini o'rganish markazi, AQShning "RAND Corporation", Eron Islom Respublikasi mudofaa milliy universiteti, Pokiston milliy mudofaa instituti, Hindiston birlashgan harbiy tashkiloti va boshqa nufuzli "aql markazlari" bilan hamkorlik memorandumlarini imzolagan.

Fransiya dunyoda eng ko'p "aql markazlari" faoliyat yurituvchi mamlakatlardan biri bo'lib, bu borada jahonda 6-o'rinni (275 ta tahliliy markaz), Yevropada esa Buyuk Britaniyadan keyingi 2-o'rinni egallaydi.

Mamlakatda mavjud tadqiqot muassasalari orasida mudofaa va xavfsizlik sohasida davlat tasarrufidagi eng nufuzli "aql markazlari"dan biri Fransiya Respublikasi Milliy mudofaa oliy tadqiqotlar instituti bo'lib, 1948-yilda faoliyatini boshlagan.

Institut Fransiya Qurolli Kuchlari Harbiy akademiyasi hududida joylashgan bo'lib, bevosita milliy mudofaa uchun mas'ul shaxs – Fransiya Bosh vaziriga bo'ysunadi. 2021-yilda 7,7 mln yevro miqdorida byudjet mablag'iga ega bo'lgan ushbu tashkilotda bugungi kunda 80 ga

yaqin sobiq elchi va diplomat, turli darajadagi ilmiy xodim faoliyat yuritadi.

Fransiya Respublikasi Milliy mudofaa oliy tadqiqotlar instituti direktori bir vaqtning o'zida davlatning oliy harbiy ta'limiga ham mas'ul hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ilm-fanning shiddat bilan rivojlanib borishi hamda mamlakat harbiy xavfsizligiga turli kompleks tahdidlar sonining ortib borishi sharoitida mudofaa masalalarini tizimli ravishda o'rganuvchi va tadqiq etuvchi tahliliy markazlarga bo'lgan talab butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham yildan yilga ortib boradi.

Tahliliy tadqiqotlar va materiallarning har qanday sohadagi muammolarini chuqur tadqiq etish, ularga ta'sir etuvchi sabab va omillarni aniqlash, vaziyatning keyingi rivojlanishi yuzasidan prognozlar ishlab chiqish hamda qaror qabul qiluvchi shaxsga muammoni bartaraf etish yuzasidan asoslangan yechimlar taklif etishdagi ahamiyati beqiyosdir.

Bu borada mavjud imkoniyatlardan unumli foydalangan holda mudofaa va xavfsizlik, Qurolli Kuchlarni rivojlantirish, ulardan samarali foydalanishni rejalashtirish hamda zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlash sohalarida izlanishlar olib borishga ixtisoslashgan davlat "aql markazlari" faoliyatini yanada takomillashtirish, shu bilan birga sohada xususiy tahliliy markazlarni ochish uchun zarur deb o'ylaymiz.

Va ushbu "aql markazlari" ilm-fan va amaliyot o'rtasidagi o'ziga xos ko'priq vazifasini bajaradi.

A. HAMDAMOV va U. XUDAYNAZAROV
(*"Siyosiy tahlil va prognozlash"* kitobidan olindi)



Mushohada

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA VATANPARVARLIK QAY DARAJADA KERAK?

Harbiy soha xodimlari uchun eng muhim fazilat va qobiliyat to'g'risida so'ralganda, albatta uning harbiy mahorati, chaqqonlik, epchillik, mas'uliyatlilik kabilar sanab o'tiladi. Jismonan chiniquqanlik, harbiy uskuna va qurollardan mohirona foydalana olish – mudofaachi uchun muhim shart. Biroq yana bir muhim shart borki, u insonga, xususan harbiy xizmatchiga xos barcha iqtidorni, fazilatlarini ezgulikka yo'naltiradi, uning ijtimoiy borlig'idagi ma'naviy poydevorini qo'yadi. Bu vatanparvarlik tuyg'usining tarbiyasidir.



Har qanday mahorat mehnat, tinimsiz izlanish, shug'ullanish natijasidir. Biroq vatanparvarlik tarbiyasining avvali qayerda, degan savol tug'iladi. Barcha davrlarda ham boshqaruvda bu tuyg'uni rivojlantirish va tarbiyalash ustuvor masalalardan biri bo'lib kelgan. Yangilanayotgan O'zbekistonda bu tarbiyaning ahamiyati yanada kengroq ko'rinadi. Nega? Boshqa davrlarda uning ahamiyati pastmidi?

Yo'q, albatta. Ilk manbalardan bilganimiz – To'maris-u Shiroqlar to'g'risidagi tarixiy afsonalarni eslab ko'ring: qahramonlik zamirida vatanparvarlik turibdi. Favqulodda boshqaruv san'atiga ega bo'lgan buyuk sohibqiron Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Boburni oling, **ularning jasoratlari milliy g'urur va vatanparvarlikdan suv ichgan**. Biroq bugungi dunyo globallashuv asosida yangicha tartiblangan, Vatan tuyg'usi ham yangicha unsurlar asosida turlicha ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, bugungi global dunyoda hamon manfaatlar kurashi davom etmoqda, biroq u endi Temur yo Manguberdi singari qilich tutmagan, Alpomish kabi kamonini o'qlamagan, hatto eng zamonaviy va juda katta qirg'inbarotlik kuchiga ega bo'lgan qurollar ham endi bitta kurashga – mafkuralar kurashiga xizmat qilmoqda. Bunday kurashda mafkura qilichining qalqoni ham mafkura, g'oya bo'ladi, g'oyaviy-ma'naviy tarbiya bo'ladi. **Harbiy sohada g'oyaviy-ma'naviy tarbiyaning eng muhim elementi – vatanparvarlik tarbiyasi.**

Eng baland imoratlar ham poydevordan boshlanadi. Xo'sh, vatanparvarlik tarbiyasi-chi? Uning poydevori nima? Uni harbiy sohaga tayyorlash jarayonida shakllantirish kerakmi yoki o'smir yoshdanmi? Ehtimol, maktab yoshidan tarbiyalab borish kerakdir? Bunga mutaxassislar allaqachon javob topgan – bu tarbiya bolalikdan boshlanishi lozim. U

oiladagi oddiy tarbiyadan boshlanadi. Oilada beriladigan, shu ostonani, Vatan poydevori bo'lmish oilani sevmok, uning tartibotlarini hurmat qilmoq, unga sadoqat qilmoqni o'rgatadigan oddiygina tarbiyadan. Men so'zimni Abdulla Avloniyning mashhur so'zlarini eslatib o'tish bilan davom ettiraman: **“Tarbiya yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”.**

Bizga ma'lumki, har bir bola tarbiya asosini, eng avvalo, oiladan, keyin ijtimoiy muhitdan oladi. Hatto harbiy intizomning avvali ham oiladagi tartib-intizomga nafaqat rioya qilish, balki ularga hurmat asosida yondashishni o'rgatishdan boshlanadi. Lekin mana shunday intizomning o'zi har bir oilada qaror topganmi yoki har bir oila yetarlicha tarbiya berish salohiyatiga egami, degan savol tug'iladi. Mayli, bunday oilalarning asosiy qismida mavjud ham deylik. Ammo oila tarbiyachilari biz aytgan tarbiya bilan muntazam shug'ullanishga vaqt topa olishlari muammoligi aniq. Negaki, bolaning tarbiyachilari – ota-ona har doim uning yonida bo'la olmaydi.

Tirikchilik istagida migratsiya yo'lini tutgani bois farzandi tarbiyasi yukini faqat ayoli yoki boshqa qarindoshlar zimmasiga yuklab ketgan oila boshliqlari salmog'ini yaxshi bilamiz. Bir so'z bilan aytganda, ota oila boqishi, ishlashi kerak. Bugungi kun ayollari ham tinch o'tirmaydi – ishlab, turmush o'rtoqlariga ko'maklashishi yoki uyda biror hunar bilan shug'ullanishi, gohida esa turmush tashvishlarining iqtisodiy yukini mutlaqo o'z yelkalariga olishiga to'g'ri keladi. Bunday hollarda bolaga yetarlicha vaqt ajratishning imkoni bo'lmasligi tayin.

Demak, bola tarbiya olish bilan bog'liq asosiy vaqtini enagada, bog'chada, keyin maktabda o'tkazishiga to'g'ri keladi. Ya'ni bu bolaning axloqiy tafakkuri shakllanish vaqtida unga enaganing,

bog'chaning, ta'lim muassasalarining ta'siri katta bo'ladi, degani. Bundan kelib chiqadiki, jamiyat o'z a'zolarini tarbiyalashda ana shu ta'lim-tarbiya muassasalaridan shunchaki foydalanishining o'zi bugun kifoya qilmaydi. Aksincha, u bu muassasalarni yangi ma'naviy makon yaratishdek milliy manfaatlarini ifoda etuvchi milliy g'oyani ta'lim zamiriga mustahkam singdirgan holda tarbiya makoniga aylantirmog'i lozim bo'ladi.

Bolani vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim tizimi oiladan keyingi o'rinda, ayrim holatlarda undan ham ustun pog'onada turadi. **Prezidentimiz Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida “bugungi murakkab zamonda yoshlarimizni turli sinovlarga chidamli, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash, xalqimizni yanada birlashtirish va jipslashtirish” masalasini bejiz ustuvor masalalar safida e'tirof etib o'tmadi.** Prezident bu borada “tarbiyachi” omiliga hamisha ustuvorlik berib kelgan va “Yangi O'zbekiston strategiyasi” asarida ham bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, keyingi ta'lim bosqichlaridagi professor-o'qituvchi va ilmiy-ijodiy ziyolilarni Yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuniga aylantirishni asosiy maqsad qilib olish lozimligini qayd etgandi. Bu maqsad ostida ham bizning ta'lim tizimidagi sharqona va milliy qadriyatga aylangan “tarbiya asosida ta'lim berish” tamoyili asos sifatida namoyon bo'lib turibdi.

Vatanparvarlik ham ongda, ham ruhda namoyon bo'ladi. Vatanparvarlikning nazariy asoslari ta'lim orqali beriladi. Harbiy sohada bu nazariy bilimlarni mustahkamlashga katta e'tibor berilishini yaxshi bilamiz. Biroq sevgi, muhabbat, sadoqat tuyg'ulari inson hissiyotlari mahsulidir, demak, vatanparvarlik tarbiyasida hissiy tarbiyaning ham o'ni katta. Boshqacha aytganda, ta'lim va tarbiya yoki ma'rifat va ma'naviyat uyg'unligi.

Aslida “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi”da ko'zda tutilgan vazifalar mohiyatini ham mana shu uyg'unlik tashkil etadi.

Ta'lim va tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'liq ekan, demak, ma'rifat va ma'naviyatni ham ajratib bo'lmaydi. Ayrim “arboblar” Uchinchi Renessans poydevorida asosiy ustun sifatida faqat ma'rifatni ko'rayotgani, o'rta ta'limda tarbiya darslarining kamligini, oliy ta'limda esa mutaxassis fanlarning o'zi bilangina yetuk malakali kadr yetishtirish mumkin, degan nuqtayi nazar bilan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishdan voz kechish yoki ularni qisqartirish g'oyasi bilan chiqayotgani ta'limni tarbiyadan ajratib olishdir.

“Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimining (e'tibor qiling: fanlarning emas, fanlar tizimining!) ahamiyati katta”, deb ta'kidlagan edi Prezidentimiz.

Milliy g'oyaning qadriyatlashuvi milliy axloqni shakllantirishga, jamiyat a'zolarini ma'naviy boyitishga, yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalashga ko'maklashadi. **Jaloliddin Manguberdi qalbida erk va ozodlik milliy g'oya sifatida qadriyatlashmaganida, unga o't va shijoat bera olarmidi? Yoki sohibqiron Amir Temur davrida el-ulusni birlashtirish, “Kuch – adolatda” ekani milliy g'oya darajasiga ko'tarilmaganda, u shunday buyuk davlat qura olgan bo'larmidi?**

Bir mutasaddi talabaning ustoziga savol berayotganda, hatto o'rmdan ham turishni istamaganini erkinlik, deb ta'rifladi. Qarang-a! Ertaga bolamiz: “Dada, turing, to'rda men o'tiraman!”, qizimiz: “Ona, tanishing, bu kuyovingiz, biz farzand kutypmiz!” deganini ham erkinlik, deb qabul qilamizmi, degan savol yuzaga kelishi, tabiiy. Aslida biz maqola boshida ta'kidlab o'tgan,

harbiy intizomning avvali oiladagi va ta'lim muassasasidagi tartibning, xususan etik qoidalarining amal qilishida ekanini unutmashimiz lozim.

Erkinlik, demokratiya nima o'zi, deb savol berib ko'raylik. Zero harbiy soha ham demokratik jamiyat ichida amal qiladi va u ham demokratik tamoyillarga bo'ysunadi. Biroq demokratiyani tarbiya jarayonida xohlagan gapini gapirib, xohlagan ishini qilish tarzida tushunishlariga yo'l qo'yib berishimizning o'zi demokratik va vatanparvarlik tarbiyasidagi qoqilishimiz bo'ladi. Afsuski, ko'pgina yoshlarda mana shu tushuncha shakllanib boryapti. Shu bois ular ustozlariga o'rinlaridan turmay, stulda yalpayib o'tirgancha, savol beryapti. Shu bois o'smir yoshdagi qizlarimiz o'qituvchi doskaga o'girilganda, bemalol derazadan sakrab chiqib ketyapti. Biz – jamiyatdagilar esa o'shanda qilgan ishimiz yodingizda bo'lsa kerak. O'qituvchining bu qizga bergan tanbehini muhokama qildik, ularga ota-onalar oldida uzr so'ratdik, tarbiya bilan shug'ullanadigan ijtimoiy-gumanitar fanlarni qisqartirishga ko'maklashdik. **Men ustozini beobro' qilgan o'quvchida bo'lg'usi harbiy xizmatchi qiyofasini ko'ra olmayman. Vatanparvarlikni ham.**

Yaqinda axloq falsafasi darsini o'tishga kirgan birinchi kunim talabalarga savol berdim: "Nima deb o'ylaysizlar, nomutaxassis yo'nalishidagi talabalar uchun ijtimoiy-gumanitar fanlar kerakmi?" Ularning aksariyati kerak emas, deb javob berdi. Ular uchun qo'shimcha fan – qo'shimcha imtihon, qo'shimcha oraliq va yakuniy nazorat, degani edi. Dars o'tib bo'linganidan so'ng talabalar bilan yana kichik debat o'tkazdim. O'rtaga tashlangan savol quyidagicha edi: "Nima deb o'ylaysizlar, nomutaxassis yo'nalishidagi talabalar uchun ijtimoiy-gumanitar fanlar kerak ekanmi?"

Tan olish kerak, albatta ular orasida yana bir-ikki nafar "Bizning mutaxassisligimiz uchun bu fan kerak emas", deguvchilar ham bo'ldi. Bular darsni ko'p qoldiradigan, past bahoga o'qiydigan, kasb etiketiga rioya qilmaslik, forma kiyimaslik, savolni o'rnidan turmay berishni erkinlik deb biladiganlar toifasidan edi.

Bu degani aniq fanlar singari tarbiyaga oid fanlar natijasini, ehtimol, bir kunda, bir oyda yoki bir yilda ko'rsatmas. Lekin biz bu fanlarni siqib chiqaradigan bo'lsak, natijasi achinarli bo'lishi mumkin. Umuman olganda, talabalarga demokratik madaniyatni, demokratiyani eksport qilib bo'lmaslikni, demokratik tamoyillar milliy qadriyatlarsiz amal qilishi milliy o'zlikni yemirishga olib kelishini qaysi fanlar o'rgatadi, degan savolni qo'yaylik. Aniq fanlar emas, albatta. Vatanparvarlik tarbiyasini "30 yillarga borib maosh falonchaga oshadi, farovonlikka erishamiz" kabi matematik yo statistik uslubda berib bo'lmaydi. Jamiyat bu tarbiya uchun alohida dastur asosida alohida fanlarni mas'ul qilib qo'yishi lozim.



Ma'rifatni ma'naviyatdan, ta'limni tarbiyadan ajratib bo'lmaydi. Tarbiyaga oid fanlarni nomutaxassislar uchun nokerak deb hisoblash jamiyat uchun, jamiyat kelajagi uchun xavf solishini unutmashlik kerak.

Biz ko'pincha "Ommaviy madaniyat" G'arbdan kirib keldi" degan gapni ishlatar ekanmiz, go'yoki bu "madaniyat" G'arbda azaldan hukm surganday qaraymiz. Men yaqinda ingliz adabiyotidan Sharlotta Brontening "Jeyn Ey" asarini va yana bir qancha G'arb adabiyotiga oid asarlarni rus tilidan o'zbek tiliga o'girdim. Ma'lumki, har bir davr adabiyoti o'sha davrdagi ijtimoiy muhit, axloqiy-tarbiyaviy qadriyatlari, milliy xususiyatlarini ham aks ettiradi. Men mana shu asarlarda keltirilgan ikki-uch asr oldingi G'arb hayotida bugungi "ommaviy madaniyat" unsurlarini ko'rmadim. Ularda mustahkam oila qadriyatlari, yuksak darajadagi etiket qoidalari aks etgandi. Bundan xulosaga kelish mumkinki, G'arb yoshlarining bugungi "erkin" qiyofasi azaldan kelmeyapti, u aynan tarbiya ta'limdan uzib qo'yilgani tufayli shakllangan.

So'zimizning isboti tariqasida, har qanday rivojlangan, demokratik tamoyillar ustuvor davlat ham vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ta'lim tizimidan foydalanishining guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, hatto Amerika davlatida ham vatanparvarlik g'oyalari ta'lim tizimida singdirilishi mustahkam asoslab qo'yilgan. Aytaylik, mashg'ulotlardan oldin davlat madhiyasini ijro etishda qaysidir o'quvchi o'rnidan turmasa yoki qo'lini ko'ksiga qo'ymasa, u o'sha kuniyoq o'qishdan chetlatiladi. Shuningdek, har bir Amerika maktabi sinflarida milliy bayroq osilgan, ko'p hollarda unga sodiqlik qasami qabul qilinadi.

Xitoyda esa vatanparvarlik mafkurasi nafaqat yurti, balki shahri, provinsiyasi, oilasi, hatto o'z uyi o'chog'ini, shuningdek xitoy tilini sevish va faxrlanish asosiga qurilgan. Vatanparvarlik tarbiyasi Xitoy pedagogikasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunda ular Vatan tarixi, milliy bayramlar, milliy qadriyatlarni o'qitish, musiqa darsida Vatan haqidagi qo'shiqlarni o'rgatishni asos qilib olgan. Targ'ibot ishlarida ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalaniladi, anonim izohlar yozish taqiqlangan, davlat va fuqarolar o'rtasida ham, talaba va o'qituvchilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar internet orqali yo'lga qo'yilgan.

Shu o'rinda Yaponiya ta'limiga oid bir fakt ham yodimga tushdi. Yapon ta'lim tizimida birinchidan to oltinchi sinfga qadar "Axloq tomon yo'l" dasturi asosida dars o'tilar ekan. Bu darslarda yapon bolalari faqat axloq, etiket qoidalari, odamlar bilan muomalani o'rganar ekan. Janubiy Koreyada ham shunday, tarbiyaviy darslar bilan birga musiqa, tasviriy san'at darslari o'tilar ekan. Bu – qalb tarbiyasi degani. Ularda jamiyatda ustoz degan nomning ulug'lanishi alohida e'tiborga molik. Ehtimol, shuning uchun ularda tartib-intizom qadriyat darajasiga ko'tarilgandir? Ko'cha-ko'yni toza tutish, jamoat joyida o'zni tutish, navbatda turish, muomala madaniyati kabilarning yuksakligi shundandir?

"Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim va bunda o'sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlari va intilishlarini hisobga olish zarur. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishda ana shu qoidaga amal qilinmayapti", deydi Prezidentimiz o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida. Ta'lim tizimidagi uzluksiz ma'naviy tarbiya ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qitilishining ham uzluksizligini taqozo etadi. Ya'ni tarbiyaga oid darslar 1-sinf dan to 11-sinfga qadar, oliy o'quv yurtlarida ham 1-kursdan oxirgi kursga qadar ularning ketma-ketligini muvofiqlashtirgan holda ta'lim dasturlariga kiritish bugungi kunda zamonning o'zi oldimizga qo'yayotgan talablardan biridir.

Men zamon deb bejiz aytmadim. Bugungi globallashuv va integratsiya kuchayib borayotgan davrda ma'naviy hayotimizdagi o'zgarishlar bilan bog'liq xususiyatlarga alohida ahamiyat qaratishimiz lozim. Chunki globallashuv bilan bog'liq axborot xurujlari, turli g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar aynan milliy o'zlik va milliy ma'naviyatga chang soladi. Yoshlar hayotiga begona chet ta'sirlarning adabiyot, san'at, ijtimoiy tarmoq orqali "ommaviy madaniyat" niqobi ostida "olomon madaniyati"ning kirib kelayotgani bugun global muammodir.

Globallashuvni ijobiy hodisa deb baholash mumkin. Shuningdek, insoniyat va jamiyatlar taraqqiy etib borarkan, globallashish hodisasi muqarrar va tabiiy jarayon hisoblanadi. Ammo har qanday taraqqiyot dialektik tarzda amalga oshadi, uning bir maromda ko'ringan dinamik rivojlanishida o'ziga xos qarama-qarshiliklar, ichki

ziddiyatlar namoyon bo'ladi. Xususan, umumbashariy qadriyatlarning shakllanishi va takomillashishi milliy-ma'naviy qadriyatlarning yemirilib borishiga olib kelishi mumkin. Biroq milliy-ma'naviy unsurlarsiz umumbashariy qadriyatlarning yashovchanligi ham kamayadi va ularni joriy etishda ham o'ziga xos muammolar yuzaga keladi. Bu kabi ziddiyatlar globallashuvning salbiy tomonlari bilan bog'liq masalalarni yuzaga chiqaradi.

Ana shu salbiy tomonlar sirasida xalqlarning asrlar mobaynida ajdodlardan avlodlarga o'tkazib kelayotgan milliy urf-odatlar, qadriyatlari umumbashariy tamoyil va qadriyatlar birlashuvi ta'siri ostida yo'qolib ketish xavfi ostida qolayotgani kabilarni insoniyat oldidagi globallashuv hodisasi bilan bog'liq xavf-xatar va muammolar sifatida sanab o'tish, bu xatarni bir so'z bilan milliy ma'naviyatga bo'lgan tahdid deb aytish mumkin. Bunday tahdidlarga qarshi qurollanish faqat ta'limni tarbiya asosida berish orqaligina amalga oshadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat taraqqiy etishi uchun, **birinchidan**, ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini ta'minlash lozim, bunda tarbiyaning milliy asosi bo'lmish milliy qadriyatlarimizdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, tarbiyaga oid fanlar o'qitilishining o'rta va oliy ta'limdagi uzviyligini yo'lga qo'yish kerak. Bunda maktabning har bir o'quv yili dasturiga, albatta tarbiyaga oid fanni kiritish lozim bo'ladi. Masalan, 1-4-sinflarda "Odobnoma", keyingi yillarda bir-birini to'ldiruvchi uzviy ketma-ketlikda vatan tuyg'usi, ekologik madaniyat, etiket qoidalari, ma'naviyat asoslari, huquqshunoslik, jamiyatshunoslik, axloqshunoslik, estetika kabi fanlarni o'qitish lozim deb o'ylayman.

Uchinchidan, jamiyatda ustoz-muallimlarga nisbatan yuksak ehtiromni shakllantirish choralarini ko'rish kerak. Bu choralar ichiga o'qituvchi malakasini oshirish ham, ularga moddiy sharoit yaratish, rag'batlantirish ham, ularning huquq va sha'nlarini himoya qilish masalalari ham kirib ketadi.

To'rtinchidan, ma'naviyat va ma'rifat markazlari va ularning bo'limlari faoliyatini ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirish lozim. Ya'ni ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosarlari (ularni yoshlar ishlari bo'yicha deb atash shart emas, chunki ularning yoshlar bilan ishlashi o'z-o'zidan ayon) faoliyati markazlarning hududiy bo'limlari bilan birga muvofiqlashtirilishi lozim.

Hazrat Navoiy shunday degan edi:

*Menga ne yor-u, ne oshiq havasdur,
Agar men odam ersam,
ushbu basdur.*

Bu xuddi "Olim bo'lma, odam bo'l" degan naqlni eslatadi. Biz ham hazratning o'gitiga amal qilsak, ayni muddao bo'lar edi.

Shahlo AHROROVA,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti katta ilmiy xodimi,
falsafa fanlari doktori

Ishonchli tayanch

VATANNI HIMOYA QILISH — FAQAT QUROL BILAN EMAS!

Vatan himoyasi insoniyat tarixi davomida eng muqaddas burchlardan biri hisoblanib kelgan. Davrlar o'zgardi, jang usullari takomillashdi, ammo Vatanga bo'lgan mas'uliyat va sadoqat mazmuni saqlanib qolaverdi. Bugungi globalashuv sharoitida harbiy tahdidlar nafaqat ochiq jangovar harakatlar, balki axborot urushi, mafkuraviy bosim, iqtisodiy va kiberxatarlar orqali ham namoyon bo'lmoqda.

An'anaviy qarashlarda Vatan himoyasi deganda asosan, harbiy kuch, qurol-yarog' va mudofaa salohiyati orqali davlat hududiy yaxlitligini saqlash tushunilgan. Biroq globalashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivoji hamda geosiyosiy tahdidlarning murakkablashuvi XXI asrda Vatan himoyasi tushunchasini tubdan yangicha mazmunda talqin etishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda xavfsizlik jamiyatning barcha sohalarida barqarorlikni ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'p qirrali tizim sifatida namoyon bo'lmoqda.

Birinchidan, harbiy-strategik tayyorgarlik zamonaviy Vatan himoyasining muhim asosi bo'lib qolmoqda. Ammo bugungi harbiy salohiyat faqat son jihatdan emas, balki professional kadrlar, zamonaviy texnologiyalar, strategik

fikrlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati bilan belgilanadi. Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibining bilim darajasi, intellektual salohiyati va vatanparvarlik ruhida tarbiyalangani mudofaa qudratini mustahkamlovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Ikkinchidan, axborot xavfsizligi masalasi zamonaviy tahdidlar ichida alohida o'rin egallaydi. Bugungi kunda urushlar faqat qurol bilan emas, balki axborot orqali ham olib borilmoqda. Yolg'on xabarlar, manipulyativ targ'ibot, ijtimoiy tarmoqlar orqali ongni boshqarishga qaratilgan xurujlar jamiyat barqarorligiga jiddiy xavf tug'diradi. Shu bois fuqarolarning tanqidiy fikrlashi, mediasavodxonligi va axborotni to'g'ri tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi Vatan himoyasining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Uchinchidan, iqtisodiy barqarorlik davlat mustaqilligi va xavfsizligining tayanch omillaridan biridir. Kuchli iqtisodiyot bo'lmasdan turib, na zamonaviy armiya, na ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish, iqtisodiy mustaqillik, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda moliyaviy tizimning barqarorligi mamlakatni

turli tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, mafkuraviy immunitet jamiyatning g'oyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Yot g'oyalar, ekstremistik qarashlar va milliy qadriyatlarga zid mafkuralar jamiyat birligini yemirishi mumkin. Shu sababli yosh avlodni milliy g'urur, tarixiy xotira, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda mustahkam hayotiy pozitsiya va mafkuraviy hushyorlikni shakllantirish zamonaviy Vatan himoyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Beshinchidan, ma'naviy-axloqiy barkamollik jamiyatning ichki kuchini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Ma'naviy yetuk, axloqan pok va mas'uliyatli shaxslar yashaydigan jamiyat har qanday tahdidga bardosh bera oladi. Halollik, adolat, fidoyilik, vatanparvarlik kabi qadriyatlar fuqarolarning nafaqat shaxsiy hayotida, balki davlat va jamiyat oldidagi burchini anglashida ham muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda harbiy tahdidlar o'z tabiatiga ko'ra, ma'naviy urush shakllari bilan cheklanib qolmayapti. Zamonaviy davrda g'ibrid urushlar,

axborot urushi, kiberhujumlar hamda mafkuraviy bosimlar davlat xavfsizligiga jiddiy xavf solmoqda. Bunday sharoitda Vatan himoyasi faqat jismoniy tayyorgarlik yoki qurol-yarog' bilan emas, balki intellektual salohiyat bilan ham ta'minlanishi lozim.

Ayniqsa, axborot makonida tarqalayotgan yolg'on ma'lumotlar, buzg'unchi g'oyalar va psixologik ta'sir vositalari jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli harbiylar turli axborotlarning tahlil qilishi, manbalarni solishtirish va aniq ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, Vatanni himoya qilish – bu faqat qurol bilan emas, balki ilm-fan, ma'naviyat va sadoqatli xizmat orqali amalga oshadigan muqaddas burch. Qurol – bu kuchli vosita, ammo uning qudratini to'g'ri yo'naltirish aql-zakovatga bog'liq. Aql esa ilm va ma'naviyat bilan kamol topadi. Demak, har bir harbiy xizmatchi o'zini bugun oddiy xizmatchi emas, balki tinchlik, barqarorlik va Vatan xavfsizligining ishonchli tayanchi sifatida his etishi va shu mas'uliyat bilan faoliyat olib borishi lozim.

Akram KURBANOV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti
Sharqiy harbiy okrug fakulteti
katta o'qituvchisi

HARBIY RUHIYAT VA JAMIYAT O'RTASIDAGI KO'PRIK



Harbiy xizmat – bu nafaqat qurol-yarog' va strategik tayyorgarlik, balki ruhiy holat, ijtimoiy muhiti va jamoaviy munosabatlar bilan bevosita bog'liq murakkab tizim. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy harbiy okrugda sotsiologlar harbiy xizmatchilarning kundalik faoliyati va xizmat samaradorligini oshirishda ajralmas rol o'ynaydi.

Sotsiologiya – bu inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan fan. Harbiy okruglarda esa u harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik holatini tahlil qilish, ularning motivatsiyasini aniqlash, jamoaviy ruhni va intizomni mustahkamlash uchun ishlatiladi.

Sotsiologlar o'rganadigan asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

1. Xizmatchilarning jamoaviy muhiti va ijtimoiy integratsiyasi – jamoadagi o'zaro munosabatlar, rahbarlar bilan aloqa, xizmatdagi hamkorlik va jamoaning ruhiy muhitini tahlil qilish.

2. Motivatsiya va xizmatga munosabat – xizmatchilarning xizmatga bo'lgan e'tibori, fidoyiligi va professional intilishi.

3. Ijtimoiy muammolarni aniqlash va hal etish – harbiy xizmatchilar orasida yuzaga keladigan muammolar, shaxsiy va jamoaviy nizolarni aniqlash va ularga yechim topish.

4. Axborot-tarbiyaviy va ma'naviy-axloqiy ishlarni

rejalashtirish – harbiy xizmatchilarning ma'naviy va psixologik rivojlanishi, axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan faoliyatni tashkil etish.

Harbiy sotsiologlar harbiy xizmatchilarning kundalik hayotini yaqindan kuzatadi. Ularning vazifalari nafaqat nazariy tahlil bilan cheklanmaydi, balki quyidagi amaliy jihatlarni ham o'z ichiga oladi:

• **Jamoaviy ruh va intizomni oshirish:** sotsiologlar xizmatdagi xizmatchilarning bir-biriga nisbatan hurmatini va jamoaviy hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

• **Xizmatchilarning shaxsiy farovonligini ta'minlash:** psixologik muammolar, stress va xizmatdagi qiyinchiliklarni aniqlash orqali ularni kamaytirish yo'llarini topadi.

• **Ma'naviy va tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish:** tadbirlar va mashg'ulotlar orqali xizmatchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

• **Strategik tavsiyalar berish:** olingan ma'lumotlar

asosida rahbarlarga jamoa bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar beradi, bu esa xizmat samaradorligini oshiradi.

Sotsiologlar tomonidan olib borilgan faoliyat bir nechta asosiy natijalarga olib keladi:

1. Xizmatchilar motivatsiyasi va xizmatga sadoqati oshadi – xizmatga bo'lgan ijobiy munosabat va jamoaviy ruh xizmatchilarning professional va shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qiladi.

2. Ijtimoiy muammolar tezroq aniqlanadi va bartaraf etiladi – nizolar, shaxsiy muammolar va xizmatchilar orasidagi tushunmovchiliklar samarali tarzda hal qilinadi.

3. Harbiy jamoaning barqarorligi ta'minlanadi – sotsiologlarning tavsiyalari jamoaviy intizom va birlikni kuchaytiradi, bu esa harbiy okrugning samarali faoliyatini ta'minlaydi.

4. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar rivojlantiriladi – xizmatchilarning shaxsiy va professional hayotida axloqiy qadriyatlarining mustahkam o'rni yaratiladi.

Bugungi kun talablariga ko'ra, harbiy xizmat nafaqat Qurolli Kuchlar va texnik tayyorgarlikni, balki ijtimoiy-psixologik yondashuvni ham o'z ichiga oladi.

Sotsiologlarning kelajakdagi vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

• xizmatchilarning ruhiy barqarorligini oshirish va stressni kamaytirish bo'yicha innovatsion usullarni ishlab chiqish;

• jamoaviy va individual treninglarni ilmiy asosda rejalashtirish;

• ijtimoiy-psixologik monitoring tizimlarini rivojlantirish;

• harbiy xizmatchilarning xizmatdagi qiyinchiliklarga chidamliligini oshirish.

Sotsiologiya – harbiy faoliyatning ajralmas qismi. U nafaqat ruhiy holatni va jamoaviy muhitni yaxshilashga xizmat qiladi, balki harbiy bo'linmaning barqarorligi va samaradorligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Maftuna MAMANAZAROVA,
Markaziy harbiy okrug
sotsiologi



Yonimizdagi odamlar

MATONATLI AYOLLAR

Bizning o'zbek ayollari kabi jonfido ayollar bormikan? Ayollarga oson emas. To'g'ri, ular tog'ni urib, tolqon qilib yotganlari yo'q. Ammo ularning nozik yelkalari ortmoqlab yurgan shunday og'ir yuklar borki, hamma vaqt ham ko'zga ko'rinavermaydi. Chunki ular bu yukni yuraklarida ko'tarib yuradi.



Suratlar sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Bugungi kunda homiladorlikni kuzatish mukammal darajaga yetgan. Homilaning jinsi, soni, sog'lig'i haqida aniq ma'lumot olishingiz mumkin. Biroq o'tgan asrning saksoninchi yillarida bularni bilish imkonsiz edi. Balki, dunyoning ayrim davlatlari bu borada o'sha paytlari ham oldinda bo'lgandir.

...O'g'il farzanddan keyin vaqt o'tib, qizaloq dunyoga keldi. Oydekkina qizaloq, ammo... ko'zlari ojiz tug'ildi. O'shanda onaning ko'nglidan nimalar kechganini bilmayman, taxmin qilaman. Unga Sadoqat deb ism qo'ydilar. Uchinchi farzand – ikkinchi qiz ham...

Muhtarama taqdirga osongina ko'nib ketadigan ayol emas edi. O'qimishli, dunyosi keng, sabr-matonatli ayol ko'zi ojiz qizalog'iga katta umidlar bilan Zarina deb ism qo'ydi. Adabiyotda Zarina ulug' momomiz To'marisning kelini deya talqin qilinadi. Nima bo'lganida ham, jasurlik va kurashchanlik bobida bizning Zarina ko'plarga ibratdir.

Bilasizmi, Zarina, Sadoqat, ularning onasi Muhtarama kabi insonlar haqida gapirish, yozish oson. Ularning taqdiri bilan yashash – bu benihoya og'ir.

Ko'zi ojiz qizaloqlarni tarbiyalash, voyaga yetkazish, jamiyatga qo'shish insondan katta kuch talab qiladi. Zarina "Biz uy yumushlarida ota-onamga yordam berar edik, bog'rog'larga qarar edik, o't o'rardik... Hech bekor o'tirmaganmiz", deganida lol qoldim. "Ota-onam harakatlanishimizga yordam bo'lsin, deb hovlini ochiq qoldirishgan, ortiqcha narsalar bo'lmagan. Hamma narsa, uylarimiz, yo'laklarimiz tekis, to'g'ri qurilgan. Ulardan juda minnatdormiz", deydi opa-singillar.

Aslida Zarina Olimova haqida yozayotgan edim. Opasi Sadoqat bilan gaplashganimdan keyin ular bir-birlarini to'ldirib turishlarini angladim.

ONA

Unga oson bo'lmadi. Eri harbiy xizmatga chaqirilganidan keyin yolg'izlanib qoldi. Kelinchak katta xonadonning xizmatida tinim bilmasdi. Aksiga olib, hech kim minnatdor bo'lmadi. Qizlari tug'ilganidan keyin...

Bu juda og'ir taqdir. Qizlarining taqdiri uchun ko'p o'kinib, ko'zyosh to'kdi. Ammo ko'zyoshlar hech narsani hal qilmaydi. Muhtarama

o'qimishli xonadonda ulg'aygan edi. Buxoro davlat universitetida o'qituvchi bo'lib ishlaydigan akasi Sharofiddin Tursunov unga bot-bot takrorlar edi: "Singlim, g'am chekma, ularga ham davlat tomonidan yaxshi imkoniyatlar yaratilgan. Mana, ko'rasan, hali ular sog'lom tengdoshlarini ham ortda qoldiradigan insonlar bo'lib yetishadi..." Akasi olim inson emasmi, keyinchalik ham ularga qimmatli o'g'itlari, amaliy ishlari bilan ko'makchi bo'ldi.

Ota-onaning tashvishi faqat opa-singil emas, yana ikki nafar, hammasi bo'lib to'rt nafar farzandi bor edi. Ammo qizlar alohida parvarish talab etardi. Ona farzandlaridan ortib, mahalla fuqarolar yig'inida ham ishlardi. Odamlarning tashvishiga ham yelka tuta olgan ayolni bugun mahalla ahli hurmat bilan xotirlaydi.

U tom ma'noda Muhtarama ismiga munosib MUHTARAMA ona edi.

SADOQAT

– Men, – deya hikoya qiladi Sadoqat Olimova, – Buxoro viloyati musiqali drama teatrida yakkaxon qo'shiqchiman. Buxorodagi madaniyat texnikumida an'anaviy ijrochilik yo'nalishi bo'yicha o'qiganman. Bugungacha bo'lgan yo'lni bosib o'tish oson bo'lmagan. Ota-onamning go'rlari to'la nur bo'lsin, ular tufayli hayotda o'z o'rnimizni topdik. Esimda, onam Zarina ikkimizni yetaklab, Peshku tumanidagi 24-maxsus maktabga olib borar, dam olish kunlari o'zi borib, olib kelardi. Ko'zimiz ojizligi uchunmi, yoki onamni yoqtirmagani uchunmi, otamning onasi bizni sevmas edi. Bolaligimizda mevali daraxtlarimiz ko'p edi. Mevalardan olib yegimiz kelsa, buvim bizni yaqinlashtirmasdi: "Ko'zlaring ko'rmaydi, daraxtlarni sindirib tashlaysan...", derdi. U bizni emas daraxtlarni avaylardi. Onam... Men ham farzandli bo'ldim.

Tug'uruqxonaga tushgan kunimdan boshlab (*u kasalxonada yonimda bo'lish uchun doktorlarni ko'ndirdi*), uch oy davomida yonimizdan jilmadi. Bola parvarishlashni o'rgatdi. Onam kabi ona dunyoda bo'lmasa kerak! Shukrki, bolam sog'lom, yaxshi o'qiyapti. Undan umidlarim katta. Zarining borligi baxtim. Boshqa jigarlarim ham bor, ammo Zarining o'rni bo'lakcha. Biz bir-birimizni so'zsiz anglaymiz. His qilamiz.

ZARINA

Zarina ijodkor ayol. U maxsus maktab-internatning beshinchi sinfida o'qib yurgan kezlari she'rlar mashq qila boshlagan. To'qqizinchi sinfdaligida "Bir safda" (*ko'zi ojizlar uchun maxsus*) jurnali e'lon qilgan tanlovda "Davlat" hikoyasi bilan qatnashib, uchinchi o'rinni egalladi.

U Samarqand davlat universitetida tahsil olgan. Navoiy pedagogika institutida aspiranturada o'qigan. Undagi hayotsevarlik, dadillik, intilish odamni hayratga soladi. Unga savollar bilan yuzlanaman:

– **Oliy ta'lim olish qiyin bo'lmadimi?**

– Davlatimiz tomonidan ko'zi ojizlar ta'limiga ham katta e'tibor beriladi. O'qishda qiynalдим, deb ayta olmayman. Juda ishtiyoq bilan o'qidim. Qiyinchiliklar ishga kirishda bo'ldi.

– **Qanday qiyinchiliklar?**

Ko'zingiz ojiz bo'lgani uchunmi?
– Suhbatga chaqirishdi-yu, ammo ichkariga qo'yishmadi. U yer-bu yerga murojaatimdan so'ng kech qolganimni, avvalroq murojaat qilmaganimni vaj qilib ko'rsatishdi. Bir yil bekor qoldim. Keyingi yil ishni puxtarog qildim. Yozma ravishda murojaat qildim. Ancha-muncha harakatlarimdan so'ng meni Peshku tumani qishloq xo'jaligi kollejiga ishga qabul qilishdi.

– **Talabalar, jamoa sizni qanday qabul qildi?**

– Bilasizmi, yaxshi odamlar ham ko'p. Birovi yo'ldan o'tishimga ko'maklashadi, birovi so'ragan joyimga yetaklab olib boradi. Bu yerda ishlash, menga yana bir katta saboq bo'ldi. Hujjat ishlarini olib borishim kerak! Buni mening nomimdan birov qilishi mumkin emas ekan. Kompyuterni o'rganishimga to'g'ri keldi. Va bu menga yangi-yangi eshiklarni ochdi.

– **Gap orasida Nukus shahrini tilga olgandek bo'ldingiz?**

– 2014-yili o'zim kabi insonga turmushga chiqdim. U bilan Qoraqalpog'istonning Nukus shahriga ko'chib o'tdik. Bu butunlay boshqa muhit edi. Odamlar, an'analar, urf-odatlar farqli. Biz kabi insonlar uchun bu katta bir sinov. Hayotimni boshqatdan boshladim, desam ham bo'ladi. Shahardagi "Nurli maskan" 10-maxsus maktab-internatida o'zbek adabiy tili – o'zbek davlat tilidan dars bera boshladim. Shunchaki dars berish bilan cheklanib qolmadim. Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasi, Ko'zi ojizlar jamiyati, ko'zi ojizlar kutubxonasi bilan

aloqalar o'rnatdim. Shu yerda o'qiyotgan o'g'il-qizlar yolg'iz emasligini, intilsa, hayotda munosib o'rin topa olishini anglatishga harakat qildim. Nukusdan yorqin xotiralar qoldi. "Tafakkur jilolari" deb nomlangan ilk kitobim chiqdi. Farzandli bo'ldim. O'g'il bola, sog'lom tug'ildi. U mening ko'rar ko'zim!

– **Hayrat! Bu qanday bo'ldi? Bola parvarishlashda qiynalmadingizmi?**

– Onam yonimda bo'ldi (*yana o'sha fidokor Ona*). Beshikka belashdan tortib, yuvintirishgacha sabr bilan o'rgatdi.

– **Siz adabiyotsevar insonsiz. O'qishga ehtiyojingiz kuchli. Maxsus kitoblar siz uchun yetarliymi?**

– Kompyuterni o'rganganim eng katta yutug'im bo'lgan. O'zimga yoqqan kitobni bemalol topib, o'qiy olaman. Kompyuter texnologiyalarining bizga moslangan zamonaviy turlari bor. Audiokitoblardan foydalanaman. O'zim sevgan psixologiyaga oid adabiyotlarni topib o'qiyman.

– **Hozir Buxoro shahrida yashayapsiz, nimalar bilan bandsiz?**

– Taqdir ekan... Buxoroga qaytdim. 45-umumta'lim maktabida ishlayapman.

– **Qiyin emasmi?**

– Biz kabi o'qituvchilarga yordamchi birlashtiriladi. Qiyin emas. O'qituvchilik kasbini sevaman. Kitob tayyorlayapman. Turli yillarda chiqqan maqolalarim, she'r va hikoyalarimni jamladim. Ko'zi ojiz bo'lsa-da, hayotda katta muvaffaqiyatga erishgan insonlar haqida yozgan maqolalarimni alohida to'plam qildim. Bu kitob boshqalarni ham ruhlantirsin, ko'zi ojiz holda ham inson bir joyda to'xtab qolmasligi, imkoniyatlardan unumli foydalanish lozimligini uqsinar.

* * *

Ba'zan ko'p noliymiz. Noshukrlik qilayotganimizni anglamaymiz. Yoninamizda Zarina, opasi Sadoqat kabi irodali insonlar taqdir hukmiga bo'yin egmay, mardona yashab kelyapti. Sog'lom farzandlarimiz tafakkurini o'stirishga, ma'naviyatini yuksaltirishga hissa qo'shyaptilar. Hayrat!

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"

Kasbiy mahorat



KO'Z O'LCHOVIDA SABR KASBI

Merganlarni tayyorlashda 5 ta ustuvor yo'nalish muhim o'rin kasb etadi:

1. Merganlik faoliyatining zamonaviy talablari.

Merganlik faoliyati yuqori aniqlik bilan bir qatorda texnologik savodxonlikni ham talab qiladi. Zamonaviy qurollar, optik tizimlar va yordamchi vositalar mergan ishini yengillashtiradi, biroq ularni to'g'ri qo'llay bilish nazariy tayyorgarlikka bog'liq. Mergan qurolning umumiy ishlash prinsiplari, optikaning imkoniyatlari va tashqi omillarning ta'sirini tushungan holda harakat qilishi lozim.

2. Nazariy ko'nikmalarning mazmuni va ahamiyati.

Nazariy ko'nikmalar merganning kasbiy tayyorgarligining asosini tashkil etadi. Bu ko'nikmalar murakkab ballistik hisob-kitoblardan tortib, mergan qo'lidagi qurol-aslaha, barcha asbob-uskunalar, jihozlar bilan mustaqil ishlashga qaratilgan. Ushbu bilimlar amaliy mashg'ulotlarda xatolarni kamaytirish va ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

3. Zamonaviy qurol va optik vositalardan foydalanish.

Zamonaviy mergan qurollari aniqlik va barqarorlikni ta'minlashga mo'ljallangan. Sozlanadigan qismlar odamga qulay qilib ishlab chiqarilgan dizayn va sifatli optik asboblarga merganning ish samaradorligini oshiradi. Optik vositalar yordamida nishonni aniq kuzatish, ungacha bo'lgan masofalarni tezda aniqlash, nishonning turgan yo'nalishi bo'yicha azimut burchagini aniqlash va otishga tuzatmalar kiritish imkoniyati mavjud.

Nazariy bilimlar ushbu vositalardan to'g'ri va samarali foydalanishda mergan ishida muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy harbiy tayyorgarlik tizimida merganlik faoliyati alohida kasbiy yo'nalish sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mergan faqat uzoq masofadan aniq o'q uzuvchi mutaxassis emas, balki zamonaviy qurol va optik vositalardan ham foydalanadigan, tashqi sharoitlarni to'g'ri baholay oladigan hamda nazariy bilimlarni amaliyotda samarali qo'llash mahoratiga ega harbiy xizmatchi hisoblanadi.

4. Tashqi sharoitlar va shamolni baholash.

Tashqi sharoitlar, ayniqsa shamol, uzoq masofadan o'q uzishda muhim omil hisoblanadi. Merganning yana bir dushmani bu shamol hisoblanib, uning ishida o'zining faol qarshiligini namoyon qiladi. Merganlar maxsus qurilmalarsiz ham atrof-muhitni kuzatib, zaruriy ma'lumotlarni tahlil qila olishi lozim. Nazariy bilimlar shamolning umumiy ta'sirini tushunishga yordam bersa, amaliy mashg'ulotlar bu bilimlarni real vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi.

5. Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash orqali kasbiy mahoratni shakllantirish.

Merganlik faoliyatida nazariy bilimlar faqat o'rganilgan ma'lumotlar majmui bo'lib qolmasdan, amaliy harakatlarda to'g'ri qaror qabul qilishning asosiy vositasiga aylanishi lozim. Nazariy tayyorgarlik niqoblanish, yashirin va shovqinsiz harakatlanish, qurol, optik asboblarga va tashqi sharoitlarning mohiyatini tushunishga xizmat qilsa, amaliy mashg'ulotlar ushbu bilimlarni real vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi.

Amaliy mashg'ulotlar davomida mergan niqoblanish, yashirin va shovqinsiz harakatlanish, qurol va optikani to'g'ri sozlashni, barqaror otish holatini tanlash va otishdan oldingi tayyorgarlikni bajarishni o'rganadi. Ushbu harakatlar nazariy tushunchalarning amaliy ifodasi hisoblanadi va muntazam takrorlash orqali avtomatik darajaga yetkaziladi.



Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash tashqi sharoitlarni baholash jarayonida ham namoyon bo'ladi. Shamol esishi va masofa kabi omillar nazariy jihatdan tushuntiriladi, biroq ular faqat amaliy mashg'ulotlar orqali to'liq o'zlashtiriladi. Har bir mashg'ulotdan so'ng natijalarni tahlil qilish, xatolar sababini aniqlash va xulosalar chiqarish kasbiy mahoratni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, merganlik faoliyati nazariy ko'nikmalar va ularni amaliyotda qo'llash mahoratining uzviy bog'liqligiga asoslanadi. Zamonaviy qurol va optik vositalardan foydalanish, tashqi sharoitlarni to'g'ri baholash hamda muntazam amaliy mashg'ulotlarda qiyinchiliklarni his qilish orqali kasbiy mahoratni oshirish professional merganlarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

**III darajali serjant
Sherzodbek ISOQOV,
Merganlar tayyorlash markazi
katta yo'riqchisi**



Meros



Shunday zotlar bo'ladiki, ularning hayoti va so'zi muayyan bir davr bilan cheklanib qolmaydi. Ular qoldirgan fikr, g'oya va ma'naviy meros avlodlar uchun "yo'l xaritasi" vazifasini o'taydi. Alloma Alixonto'ra Sog'unii ana shunday ulug' siymolardan biridir. U zotning hayoti, ijtimoiy pozitsiyasi va ijodi – mustamlaka tazyiqlari, mafkuraviy ta'qiblar sharoitida ham haqiqatni himoya qilish mumkinligining yaqqol isboti.

XALQ VIJDONINING BEDOR OVOZI

Alixonto'ra Sog'unii aytgan quyidagi so'zlar esa uning dunyoqarashi va hayot falsafasini to'la ifoda etadi:

"Har bir kimsaga ma'lumdirki, hayot olamida insonning eng sevgan, qadrl, qimmatli to'rt narsasi bordur. Bu to'rt narsaga ega bo'lmagan kishilar insonlik sharafigidan mahrum bo'lurlar. Ular: ozodlik va erkinlik, mehnat bilan topilgan molga o'zi egalik qilmog'i, tug'ilib o'sgan ona Vatani hamda asrlar bo'yi asrab- avaylab kelayotgan muqaddas dini".

Bu so'zlar tasodifan aytilmagan. Ular mustabid tuzum insonning aynan shu to'rt asosiy qadriyatini yo'q qilishga intilayotgan bir paytda keltirilgan ma'naviy bayonot edi.

Bilamizki, alloma hayotining muhim qismi sobiq KGBning doimiy nazorati ostida, uy qamog'ida o'tgan. Biroq jismoniy ozodlik cheklangan bo'lsa-da, uning tafakkuri va qalbi doim uyg'oq yashadi. U har qanday sharoitda ham haq so'zni aytishni o'zining ma'naviy burchi, deb bildi.

1958-yilda "Temur tuzuklari"ning saqlanib qolgan forsha nusxasini o'zbek tiliga tarjima qilishi, shubhasiz tarixiy adolatni tiklashga qaratilgan jasoratli qadam edi. Chunki o'sha davrda Amir Temur shaxsiyati, uning nomini tarixdan o'chirishga bo'lgan urinishlar avjiga chiqqandi. Shunday bo'lsa-da, uning bu jasorati maqtovlarga emas, tanqidlarga nishon bo'ldi. Shunga qaramay, 1960-yilda doimiy nazorat va tazyiqlarga qaramay, Alixonto'ra Sog'unii buyuk Temur haqida she'r yozadi. Bu she'r matbuotda e'lon qilinmagan bo'lsa-da, ma'naviy meros sifatida avlodlarga yetib keldi.

"Temur tuzuklari" tarjimonidan" deb nomlangan she'r quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

Temurdek jahonda kishi o'tmadi,
Aningdek o'g'ilni ona tug'madi.
Yigirma yetti poytaxt oldi ul,
"Barang'ar", "jarang'ar",
"yasol" qildi ul.
Aning haqida yaxshi so'z ko'p erur,
Yomonlikni aytquvchilar ham bo'lur.
Birov yaxshi dursa, birov der yomon,
Ulus so'zidin kim qolibdir omon?

Bu misralarda Alixonto'ra Sog'unii sohibqiron shaxsiyatiga baho berishda tarixiy adolat va ma'naviy muvozanatni qat'iy saqlaydi. U buyuk sarkardani ko'r-ko'rona ulug'lamaydi, shu bilan birga, uning tarixiy qiyofasini qoralashga urinayotgan qarashlarga ham qat'iy javob qaytaradi. Ana shu shijoat bilan u "Temur tuzuklari" asarini va uning tarjimonini nohaq, g'arazli tanqid qiluvchilarga nisbatan quyidagi teran ma'noli misralarni bitadi:

Tosh urib sindirsa, oltin kosani,
Toshning qadri oshmagay,
oltin bahosi tushmagay.

Bu yerda u haqiqatni sindirib bo'lmasligi, ma'naviy merosning qiymati bunday zarbalar bilan

kamaymasligini uqtiradi.

Alloma ijodida Vatan va ilm tushunchalari bir-biridan ajralmas qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu, ayniqsa **"Vatan va ilm yoki yetti yulduz"** she'rida yaqqol ko'rinadi:

Eshit mendin, Vatan o'g'li, nasihat,
Eshit mendin, Vatan o'g'li, nasihat,
Qabul qilsang, kelur
boshingga davlat.
Jahon ko'rgan qarining so'zin olg'il,
Amal aylab, ani ko'nglingga solg'il.
Yigitlik davrini ish vaqti deb bil,
G'animatdir, kerak ishni bilib qil.
Jahon xalqi o'likdir yo tirikdir,
Tirik yurgan ilmsizlar o'likdir.

Ilmsiz inson jisman tirik bo'lsa-da, ma'nau o'lik hisoblanadi, degan bu fikr bugungi kunda ham o'z dolzarbligi va hayotiy ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Ozodlik kuychisining **"Uyg'on"** nomli she'ri mustamlaka asoratida yashagan xalqning ichki fojiasi va ruhiy tanazzulini ochib beradi. Ushbu she'r kishilarni g'aflat uyqusidan uyg'otishga qaratilgan xolis ogohlikka chorlovchi chaqiriq sifatida yangragan edi.



Borlig'im saqlay desang,
ilm-u hunardin qil yaroq,
Yo'q esa olg'ay baringni,
qilmag'ay hech kim so'roq.
Yer yuzi o'zgardi,
ammo o'zgarishdin bizda yo'q,
Sindi Turkiston elining boshida
yuz ming tayoq.
Och ko'zing, Turon eli,
zing'irt bo'lurmu qo'ychivon,
Bormu bu yanglig' bo'lon
payqab qara boshdan-oyoq?
Har o'g'il voris bo'lur,
qolg'on atoning moliga,
Bo'ldi Turkiston elining
vorisi yuzsiz qaroq...

Bugungi vatanparvar avlod ham Sog'unii merosidan to'yinib suv ichmoqda. Yurtboshimiz o'z nutqlarida askarlikka qabul qilingan harbiy xizmatchilar **"O'zbekiston tarixi"** va **"Temur tuzuklari"**ni chuqur bilishi shartligini ta'kidlagani ham bejiz emas. Chunki tarixni bilgan askar Vatanni bor vujudi himoya qiladi. Bu e'tibor natijasida tariximizga bo'lgan qiziqish, "Temur tuzuklari"ning ma'naviy qadri yanada keng ommalashib, ma'naviy qo'llanmaga aylanmoqda.

Alixonto'ra Sog'unii qalami, so'zi va jasorati bilan xalqimiz vijdoniga aylangan ulug' allomadir. U zotning yurtga muhabbati, ilmga ishonchi va haqiqatga sadoqati bugun ham biz uchun yuksak ma'naviy mezon bo'lib xizmat qiladi. U qoldirgan merosni o'qish, anglash va hayotga tatbiq etish esa bugungi avlod zimmasidagi tarixiy va ma'naviy qarzdor.

Faxriddin NUTFULLAYEV,
Osiyo xalqaro universiteti
2-bosqich magistranti



QISQA VIDEOLAR DAVRIDA CHUQUR FIKRLASH MADANIYATI

Zamon tezlashdi. Buni endi faqat hayot sur'atida emas, inson fikrlash tarzida ham yaqqol his qilyapmiz. Bugun bir necha soniyalik videolar, tez almashadigan kadrlar, qisqa va sodda xulosalar axborot makonini egallab bo'ldi. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan bunday kontent insonga qulaydek tuyuladi: o'qib o'tirish shart emas, diqqatni jamlashga hojat yo'q, barchasi tayyor holda taklif qilinadi. Ammo bu qulaylik ortida jiddiy ma'naviy va intellektual xavf yashirin.



Chunki inson ongi asta-sekin chuqur fikrlashdan, sabr bilan tahlil qilishdan uzoqlashayotgani sezilmoqda. Haqli savol tug'iladi: biz axborotni ko'p iste'mol qilyapmizmi yoki fikrlashni yo'qotayapmizmi?

AXBOROT EMAS, TAASSUROT

Qisqa videolarning asosiy xususiyati ma'lumot berish emas, tez taassurot uyg'otishdir. Ular inson hissiyotiga ta'sir qiladi, kulishga, hayratlanishga, g'azablanishga undaydi. Ammo kamdan kam hollarda o'ylashga, fikr yuritishga majbur qiladi.

Natijada inson ma'lumotni mazmuni bilan emas, ta'siri bilan baholay boshlaydi. Qaysiki bu shakldagi video ko'proq yoqsa, inson ongida shu to'g'ri, degan xulosa yaratilib boraveradi. Bu esa fikrlash madaniyatida xavfli tendensiyani shakllantiradi: haqiqat hissiyot bilan almashib boradi.

CHUQUR FIKRLASHNING QIYMATI

Chuqur fikrlash – bu vaqt, sabr va diqqat talab etadigan jarayon. Unda inson turli nuqtayi nazarlarni solishtirishi, xulosaga esa shoshilmasligi kerak bo'ladi. Ana shu sifatlar esa bugun eng kamyob qadriyatga aylanib bormoqda.

Aslida esa jamiyat taraqqiyoti aynan chuqur fikrlay oladigan insonlar hisobiga ta'minlangan.

Qonun chiqarayotgan ham, ta'lim tizimini isloh qilayotgan ham, jamiyatga yo'l ko'rsatayotgan ham shoshma-shosharlik bilan qabul qilingan qarorlar bilan emas, puxta tahlil ila ish tutadi.

YOSHLAR ONGI VA TEZKOR KONTENT

Qisqa videolarning eng katta ta'siri yoshlar ongida namoyon bo'lmoqda. Yosh avlod axborotni aynan shu formatda qabul qilishga ko'nikib qolyapti. Natijada uzoq matn o'qish, bir fikr ustida to'xtab, mulohaza qilish qiyinlashmoqda.

Bu holatni shunchaki "zamon talabi" deb qabul qilish xato bo'ladi. Chunki fikrlash qobiliyati shakllanmagan avlodni boshqarish oson, yo'naltirish esa yanada qulay. Tayyor xulosalarga



ishonishga o'rgangan inson mustaqil qaror qabul qilishda qiynaladi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi algoritmlar inson nima ko'rishini, nima haqida o'ylashini ma'lum ma'noda belgilab berayotgandek. Kimdir bir mavzuga qiziqish bildirsa, shu mavzudagi videolar yana yangi shaklda taklif qilinadi. Bir qarashda bu qulay, ammo aslida insonni ma'lum fikriy doiraga qamab qo'yadi.

Turli qarashlar, zid fikrlar, bahs va mulohaza yo'qolgan joyda esa chuqur fikrlash ham rivojlanmaydi. Inson faqat o'ziga ma'qul bo'lgan fikrlar ichida qolib ketadi.

Fikr yuzakilashgan joyda munosabatlar ham yuzakilashadi. Inson voqeaga mohiyati bilan emas, lahzaviy ta'siri bilan baho beradi. Bu esa sabrsizlik, keskinlik, murosasizlikni kuchaytiradi.

Ma'naviyat esa aynan fikr chuqurligi bilan bog'liq. Sabr bilan o'ylash, mas'uliyat bilan qaror qabul qilish, oqibatni hisobga olish – bularning barchasi chuqur fikrlash madaniyatiga tayanadi.

Qisqa videolarni butunlay inkor etish yoki taqiqlash masala yechimi emas. Masala ularga bo'lgan munosabatni o'zgartirishda. Inson o'z vaqti, diqqati va ongini nazorat qilishni o'rganmasa, uni boshqalar nazorat qila boshlaydi.

Bugungi kishilik jamiyati, ayniqsa, yosh avlod kitob o'qishni, tahliliy maqolalar bilan tanishishni, mazmunli suhbatlarni hayot tarziga aylantirishi zarur. Aks holda, yuzaki taassurotlar hayotimizni boshqaradigan kuchga aylanib qolishi mumkin. Zero fikrlay oladigan insongina ertangi kun uchun mas'uliyatni his qila oladi.

Mamadoli ISAQULOV,
Jizzax davlat
pedagogika universiteti
katta o'qituvchisi, (PhD)



✓ Hamkorlik



MEMORANDUM MUDDATI 5 YILGA UZAYTIRILDI

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi, "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi hamda Germaniya Federativ Respublikasining "SBH WEST GmbH" ta'lim va hunarmandchilik fondi o'rtasida o'tgan yili imzolangan anglashuv memorandumiga qo'shimchalar kiritildi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashida uch tashkilot vakillari o'rtasida uchrashuv o'tkazildi.

Tashkilotning o'quv muassasalarida Yevropa Ittifoqi standartlariga muvofiq, yuk va yo'lovchi tashish bo'yicha professional haydovchilar tayyorlanib, ularning Germaniya mehnat bozorida vaqtincha faoliyat yuritishlarini ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

Yangi tahrirdagi memorandumga ko'ra, ushbu yo'nalishdagi uch tomonlama hamkorlik muddati 2030-yil 31-dekabr qadar uzaytirildi.

Mazkur hujjatga muvofiq, Germaniyada ishlash istagida bo'lgan o'zbekistonlik fuqarolar "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida "D" va "CE" toifalari bo'yicha haydovchilik kasbiga o'qitiladi. Haydovchilik guvohnomasini qo'lga kiritgan nomzodlarni "SBH WEST GmbH" fondi tomonidan tanlangan vakillar va ish beruvchi kompaniyalar amaliy imtihondan o'tkazadi. Imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan haydovchilarga tegishli sertifikatlar topshiriladi. Nomzodlardan nemis tilini "B1" darajada bilishlari talab etiladi.

Dastlabki bosqichda 100 ga yaqin avtobus va yuk transporti haydovchisi 2025-yilning oktabr oyida Germaniyaga yuborildi. 2026-yilda 200 nafar haydovchi yuborilishi belgilangan.

✓ Uchrashuv

YOSHLARGA VATANPARVARLIK G'OYALARI SINGDIRILDI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan "Vatanparvar" tashkiloti tashabbusi bilan poytaxtimizdagi 272-umumta'lim maktabida harbiy-vatanparvarlik tadbiri tashkil etildi.



"Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!" shiori ostida o'tkazilgan tadbirida o'quvchi-yoshlarga "Vatanparvar" tashkilotida "Motokross", "Karting", "Duatlon", "Biatlon", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Aviamodel", "Raketamodel" kabi sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha tashkil etilgan seksiyalarning ko'rgazmalari namoyish etildi.

Uchrashuv davomida ularga tashkilot sportchilari tomonidan nafaqat O'zbekiston, balki xalqaro chempionatlarda erishilayotgan yutuqlar to'g'risida ma'lumotlar berildi va o'quvchilarga tashkilotning bepul sport to'garaklarida istalgan vaqtda qatnashishi mumkinligi tushuntirildi.

So'ngra Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi harbiy xizmatchilari tomonidan maktab o'quvchilariga milliy armiyamizda olib borilayotgan keng islohotlar to'g'risida so'zlab berdi. Harbiylik kasbini egallamoqchi bo'lgan yoshlarga zarur maslahatlar va tavsiyalar yetkazildi. Uchrashuv qizg'in savol-javoblar bilan o'tdi.

Harbiy orkestr tomonidan ijro etilgan kuylar va o'quvchilar tomonidan Vatanni madh etilgan qo'shiqlar tadbirga ko'tarinki ruh bag'ishladi.



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

✓ Ma'rifat soati

"Prokuratura organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish" konsepsiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida navbatdagi ma'rifat soati tashkil etildi.

DOLZARB MAVZUGA BAG'ISHLANDI

Hududlardan barcha xodimlar videokonferens-aloqa tarzida ishtirok etgan muloqotda Milliy statistika qo'mitasidan ishtirok etgan mutaxassis tomonidan "Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish hamda bu jarayonda "census.stat.uz" portalidan foydalanish tartibi" mavzusida ma'ruza qilindi.

Ma'lumki, Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, 2026-yilning 15-yanvar kundan 28-fevral kuniga qadar mamlakatimizda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazilishi belgilangan.

Tadbirida ushbu farmonga asosan, davlat organlari va tashkilotlari joriy yil 15-31-yanvar kunlari o'z tizimidagi barcha xodimlarning "census.stat.uz" portalida ro'yxatdan o'tishini ta'minlashi lozimligi haqida to'xtalib o'tilib, tizimdan ro'yxatdan o'tish tartibi haqida tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, mazkur portaldan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatdan o'tkazishdan ko'zlangan maqsadlar hamda bu borada aholi o'rtasida olib borilayotgan tushuntirish ishlari haqida ma'lumotlar yetkazildi.

Jarayonda ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi.

Adliya podpolkovnigi Botir SOBIROV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

✓ Muloqot

ZAMONAVIY YIGIT — VATAN, OILA VA JAMIYAT POSBONI

Bugungi notinch va murakkab dunyoda kechayotgan geosiyosiy jarayonlar har birimizni chuqur mushohada qilishga chorlaydi. Ayniqsa, Vatan tinchligi va osoyishtaligini o'z zimmasiga olgan har bir mard o'g'lon uchun bu mas'uliyat yanada ulug' va sharaflidir. Chunki yurtini ko'z qorachig'idek asrash, uni nafaqat qurol bilan, balki ong, tafakkur va ma'naviyat bilan ham himoya qilish chin farzandlik burchidir.

Ana shu ezgu g'oyalar Termiz davlat universiteti rektori tomonidan Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Kakaydi garnizonida o'tkazilgan samimiy uchrashuvda o'z ifodasini topdi. "Zamonaviy yigit – Vatan, oila va jamiyat posboni" mavzusidagi ochiq muloqotda bugungi yigitlarning zimmasidagi mas'uliyat, burch va fidoyilik hayotiy misollar orqali yoritib berildi.

Uchrashuvda har bir askarning Vatan oldidagi xizmatini sharafla ado etishi, ota-onaning ishonchini oqlashi hamda kelajakda jamiyatning mustahkam tayanchiga aylanishi muhim ekani alohida ta'kidlandi. Shuningdek, bugungi globalashuv davrida askar faqat jismonan emas, balki ma'naviy va intellektual jihatdan ham yetuk bo'lishi zarurligi qayd etildi. Shu bois harbiy xizmatchilarni ko'proq kitob mutolaa qilishga, bilim va tafakkur orqali dunyoqarashini kengaytirishga undovchi fikrlar yangradi.

Muloqot jarayonida askarlarni qiziqtirgan savollarga samimiy va hayotiy javoblar berilib, suhbat rasmiy doiradan chiqib, yurakdan yurakka yo'naltirilgan ruhda kechdi. Bu esa askarlarga ma'naviy kuch, qat'iyat va kelajakka bo'lgan mustahkam ishonch bag'ishladi.

Tadbir yakunida rektor A. Toshqulov tomonidan harbiy qism kutubxonasiga tuhfa etilgan badiiy va noyob kitoblar ushbu ezgu chaqiriqlarning amaliy ifodasiga aylandi. Zero kitob – tafakkur qurolli, ma'naviyat qalqoni.

Shubhasiz, bunday uchrashuvlar yoshlar qalbida Vatanga muhabbat, sadoqat va mas'uliyat tuyg'ularini yanada mustahkamlab, yurt tinchligi yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan askarlarimizga ruhiy madad bag'ishlaydi.

Jamshid NAZAROV,
Termiz davlat universiteti tyutori

Uch avlod uchrashuvi



Namangan viloyatida joylashgan harbiy qismlarning birida “Yangi O‘zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!” shiori ostida uch avlod uchrashuvi o‘tkazildi.

SHARAFLI VA MAS’ULIYATLI YO‘L



Ma’naviy-ma’rifiy tadbir avvalida faxriylar mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining salohiyati va harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini oshirish borasida davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati haqida so‘z yuritdi.

Keksa avlod vakillari o‘z hayotlari, ish tajribalari haqida gapirib, harbiy xizmatchilarni qiziqtirgan savollarga javob berdi.

Uchrashuv yakunida faxriylar o‘z hayotini ona Vatanni himoya qilishdek muqaddas va oliyanob ishga bag‘ishlagan barcha harbiy xizmatchilarga yurtimiz tinchligi, osmonimiz musaffoligi va sarhadlarimiz daxlsizligi yo‘lidagi sharaflari va mas’uliyatli xizmatlariga ulkan zafarlar bildirdi.

Podpolkovnik Jur‘at OTAJONOV

Buni bilarmidingiz?



BAKTERIYALAR HAQIDA

QIZIQARLI FAKTLAR

Birinci bo‘lib bakteriyalarni gollandiyalik olim Antonio Levenguk o‘zi ixtiro qilgan mikroskop orqali ko‘rishga muvassar bo‘lgan.

Yer yuzidagi tirik mavjudotlarning **70 foizini** bakteriyalar tashkil etadi va ular yerdagi eng qadimiy tirik organizmlardir. Bakteriyalar taxminan **3,5 milliard** yil avval paydo bo‘lgan.

Bakteriyalar o‘simlik va hayvonot dunyosi yashay olmaydigan joylarda ham rivojlanaveradi. Ularning ko‘pchiligi kislorodga muhtoj emas. Yer qobig‘ining 100 metr chuqurligida, vulqon og‘zida, antarktida, kosmosda, daryo, dengiz, okean, atmosferaning yuqori qobiqlari va muzliklar qatnashida ham uchratish mumkin.

Olimlar tomonidan aniqlangan eng qadimgi mikroorganizmlar – bu **termotidofel arxeobakteriyalar** bo‘lib, ular katta miqdorda kislotaga saqlaydi. 55 darajadan past haroratda ular nobud bo‘ladi.

Bioluminescent bakteriyalar yorug‘lik chiqaradi va dengiz hayvonlariga yorug‘lik manbai bo‘lib xizmat qiladi. Yomg‘irdan so‘ng nam yerdan keladigan ajoyib hidni

esladingizmi? Bu hid yer yuzasida yashovchi **aktinobakteriya** va **sianobakteriyalar** tomonidan ishlab chiqariladi.

Mobil telefonidagi bakteriyalar soni, unitazdagi bakteriyalardan **18 marta** ko‘p hisoblanadi. Pul banknotlarida o‘rtacha **3 000 tagacha** bakteriya mavjud.

Katta yoshdagi odam organizmidagi bakteriyalarning umumiy vazni **2 kilogrammni** tashkil qilib, ularning asosiy qismi ichaklarda yashaydi.

Inson og‘zida **40 000 tagacha** turli xil bakteriya yashaydi va ular **20 daqiqada** yangi avlod qoldiradi. Odamda paydo bo‘ladigan terning hidi bo‘lmaydi, hidni maxsus bakteriyalar beradi.

Bakteriyalarning kasallik keltirib chiqaruvchi turlaridan tashqari, odam hamda tabiat uchun foydali xususiyatlarga ega bo‘lgan turlari ham mavjud. Misol uchun, tabiatda bakteriyalar organik moddalarni parchalab, o‘simliklar uchun ozuqa moddalarga aylantirishga

yordam bersa, odam organizmidagi bakteriyalar ovqat hazm jarayonida, vitaminlar hosil bo‘lishida ishtirok etadi, temir va kalsiyni o‘zlashtirishda qatnashadi, immun tizimini faollashtiradi.

Odam uchun ayrim foydali bakteriyalarga quyidagilar kiradi:

Laktobatsillus – bu bakteriya yogurt, kefir va achitilgan oziq-ovqatlar tarkibida bo‘ladi. Ovqat hazmini yengillashtiradi va hazm tizimini sog‘lom ushlab turadi, ichakdagi foydali bakteriyalar sonini oshiradi, yomon bakteriyalar ko‘payishini to‘xtatadi, immun tizimini faollashtiradi, ayrim turlari terining holatini yaxshilaydi.

Bifidobacterium – bolalar va kattalarning ichak florasida, yogurt va probiotik mahsulotlar tarkibida bo‘ladi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar ichagida ko‘p bo‘lib, ularni infeksiyalardan himoyalaydi. Immunitetni mustahkamlaydi va hazm jarayonini yengillashtiradi, ichak devorini muhofaza qiladi, vitaminlar (*ayniqsa B guruhi*) sintezida ishtirok etadi, xavfli bakteriyalardan himoya qiladi.

Streptomyces – tabiiy antibiotiklar (*masalan, streptomitsin*) ishlab chiqaradigan bakteriya. U kasalliklarni davolashda muhim ahamiyatga ega.

Streptococcus thermophiles – yogurt va achitilgan sut mahsulotlari tarkibida bo‘ladi. Sutni parchalaydi, shu bilan laktozaga sezgir odamlarga

ham yordam beradi, immun tizimini quvvatlaydi, terining holatini yaxshilaydi.

Bacillus coagulans – probiotik kapsulalarda va ayrim ichimliklar tarkibida bo‘ladi. Qorin dam bo‘lishini kamaytiradi, ichakdagi mikroflorani tiklaydi, sportchilarda mushak tiklanishini tezlashtiradi.

Propionibakterium freudenreichii – Shveysariyaning mashhur “Emmental” brendi ostida ishlab chiqariladigan pishloq tarkibida bo‘ladi. Vitamin B₁₂ni ishlab chiqaradi, hazm tizimini quvvatlaydi.

Leuconostoc va Pediococcus – chimchi, achchiq karam, achitilgan sabzavotlarda bo‘ladi. Ovqat hazmini yengillashtiradi, organizmni zaharli moddalardan tozalaydi, antioksidant ta’sir ko‘rsatadi.

Odam organizmidagi mavjud bo‘lgan foydali bakteriyalar nimalarni yoqtiradi, degan savolga tozalikni, yangi tayyorlangan ovqatlarni, nordon oziqlarni (*yogurt, kefir, chimchi, achchiq karam*) va kletchatkalarni (*sabzavot, mevalar, don mahsulotlari*) yaxshi ko‘radi deb javob berish mumkin.

Foydali bakteriyalar nimalarni yoqtirmaydi, degan savolga esa antibiotik dori-darmonlarni, fastfud va shakarli yeguliklarni, stress va uyqusizlikni deyish mumkin.

Tibbiy xizmat podpolkovnigi M. SHAROPOV, Qarshi sanitariya epidemiologiya nazorati bo‘limi boshlig‘i

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA
REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA



A photograph of two men standing outdoors. The man on the left is wearing a black leather jacket and a black flat cap, looking down at a document. The man on the right is wearing a red and blue jacket with a large red 'M' logo and a black flat cap, also looking at the document. They are standing in front of a white building with a tiled roof.

Ogohlik

ADASHGAN O'G'IL YOXUD VATANINGGA QAYT, O'G'LON!

Yosh qizcha mendan o'z ijodiy mashqlarini ko'rib berishimni iltimos qildi. Daftar yozuvlar bilan to'la. Uni bir-bir varaqlab, o'qishga tushdim – uning fikrlari teran, so'z boyligi keng ekanini darrov sezdim.

Ayniqsa, uning Vatan himoyasi to'g'risidagi hikoyasi qalbimni larzaga soldi. Bu mavzuda shunchaki qalam tebratilmagan, balki qalb tug'yonini satrlarga joylagan.

– Sinfidosh dugonam bor. U ilgari sho'x-shodon edi, keyingi paytda o'zgarib qoldi, doimo ma'yus, g'amgin yuradi, ochilib kulganini, hazil-mutoyiba qilganini ko'rmay qo'ydim. Kunlardan bir kun u maktabga kelmadi, ustozim menga xabar olishimni tayinladi.

Dugonamning uyi bizdan uch ko'cha narida joylashgan. Onam masofa uzoqligi uchunmi, o'zimni yolg'iz jo'natgisi kelmay, 7-sinfda o'qiydigan ukamni qo'shib yubordi. Biz dugonamning uyiga yetib borib, uni chaqirdik. U ko'zlari qizargan holatda chiqib keldi.

– Iye, mazang yo'qmi, nima bo'ldi? – deb so'radim, shoshgancha. Dugonam meni quchoqlab, o'ksib-o'ksib yig'ladi, men ham unga qo'shildim, ko'zlarimdan o'zim sezmaganday yosh dumalardi.

– Bo'ldi-da, endi hadeb yig'layverasizlarmi, kech bo'lyapti, opa, ketish kerak, – ukam zarda bilan gapirdi.

– Oyimdan so'ra, o'rtoqjon, sen bilan ketay, yo'qsa, bo'g'ilib, ado bo'laman, – dugonam menga yolvord.

Hech nima tushunmasam ham, uning oyisidan ruxsat olib, uyga ketdik. Qizig'i, onasining ham ko'zlari yig'idan qizarib, shishib ketgan edi.

Xonamda ikkimiz. U ham jim, men ham. O'rtadagi sukunat ichra men hayron, dugonam g'amgin o'tiraverardik.

– Bilasanmi, akam tabiatni, qushlarni yaxshi ko'rardi, chiroyli rasmlar chizardi. Uning suratlarida aks etgan osmon, zamin, o'simliklar-u qushlar shu qadar jonli ediki, ularni ko'rib hayratga tushardik. Rasmlar ostida yo ustida "Mening Vatanim", "Qiyosi yo'q diyorum", "Chiroyingga to'yamayman, Vatan", "Senga sadqa bo'lsin, bu jon" degan bitiklar bo'lardi. Otam ham, onam ham "Mening buyuk rassom o'g'lim!" deb akam bilan faxrlanishardi. To'satdan akam rasm chizmay qo'ydi. Xonasini ham doim qulflab oladigan bo'ldi. Biz hayron edik, akamni qay bir sabab sevgan mashg'ulotidan voz kechishga undaganini tushuna olmasdik. Akam tunlari kech keladigan, ba'zan esa yo'q bo'lib ketadigan odat chiqardi. Otam tergasa ham, onam kuyinib yig'lasa ham akam lom-mim demasdi. Shu orada 6 oydan ko'proq vaqt o'tdi. Ittifoqo, akam yana surat chiza boshladi, bizning xursandchiligimizning cheki yo'q edi. Lekin akam endi rasmlarni ko'rsatmas, xona eshigidagi gulf ochilmas edi. "Shunisiga ham shukr", derdi onam.

Bir kuni akamni mudofaa ishlari bo'limiga chaqirishdi, akam u yerdan keldi-yu, "Vaqt bo'ldi, men endi tayyorman!" dedi otamga qarab.

– Ana xolos, harbiy xizmatga chaqirildingmi, xayriyat, mening zurriyotim ham Vatan koriga yaraydigan yoshga yetibdi, – deya otam xursand bo'ldi.

– Ota, men harbiyga boradigan darajada ahmoq emasman. O'tgan oylar davomida men chizgan barcha



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

go'zal suratlar betayin ekanini, dunyoni yaxshilikdan ko'ra, kuch va zo'ravonlik boshqarishini tushunib yetdim. Menga bu borada Vatandan nohaq quvilgan, adolatsizlik qurboni bo'lgan vatanparvarlar saboq berishdi va men ular safiga qo'shildim. Men tayyorman, zero o'zim kabi notavonlarni to'g'ri yo'lga solishga menda jur'at yetarli, – akamning ko'zlari sovuq boqardi. Otam o'rmidan turdi-yu, akamning yuziga musht tushirdi. San'at va go'zallik shaydosi to'lib kelgan akam esa otamga qo'l ko'tardi...

– Bu dahshat edi, o'rtoqjon! Onam hushsiz yerga yiqilgan, otam ko'ksini changallagancha nadomat to'la ko'zlarini akamga tikib, tek qotgandi. Akam shaxt bilan xonasiga kirdi va chamadonini olib, ortiga qaramay, chiqib ketdi, – dugonam unsiz yig'lardi.

– Qayerda xato qildim, o'g'limning nazoratini qachon ko'zdan qochirdim, nega mening o'g'lim, "Vatan, xalq, mustaqillik tomonda emas, ozodlik, hurlik va adolatga qarshi bo'lgan g'animlar tomonida? Nega, nima uchun?" Otam tinmay, shu so'zlarni takrorlar, u adoyi tamom bo'lgan edi.

– Otasi, o'g'limiz adashdi, lekin ertami-kechmi, buni tushunib yetadi. Chunki biz unga halol luqma yedirdik, u yaxshi odamlar orasida o'sdi. Uning aqli, iste'dodini Vatan ravnaqiga, kuchi, shiddatini esa yurt himoyasiga qaratgan edik, demak, u yomonlar orasini yorib ortga qaytadi, – xokisor onamning so'zlariga ishongim kelardi, shu tobda.

– Eng yomoni akamning xonasiga kirganimda bo'ldi. Tokcha va stollarning

usti, kitob javoni suratlariga to'la edi. Men ko'rgan oldingi suratlar yo'q. Birida sovuq qurollar tasvirlanib, birida basharasi xunuk, qurollangan odamlar hissiz boqib tursa, birida zo'ravonlik aks etgan manzaralar meni dahshatga soldi. Vayrona kulbalar, jon taslim qilgan va qilayotgan kishilar tasviri etimni junjiktirib yubordi. Yana bir suratda akam qo'lida avtomat bilan sovuq va xunuk tirjayib turar, oyog'i ostida esa o'lik jonlar yotardi. Osmon uzra qora bulutlar, qarg'alar, quzg'unlar charx urib uchardi. Men dod solib, xonadan otilib chiqdim, dag'-dag' titraganimcha, otam va onam quchog'iga otildim. Bilasanmi, ular akamni unsiz qarg'adilar, – dugonamning ko'zyoshi tinmasdi.

Qizning hikoyasi shu yerda tamom bo'lgan. Men uni tahrir qilmadim, o'z holicha qoldirdim. Lekin xotimasiga quyidagilarni qo'shib qo'ydim:

– Adashgan o'g'il, kun kelib, Vatanning bir chindim tuprog'iga zor bo'lasan. Tengqurlaring gul-u gulzorni kezkanda, sen quzg'unlar to'dasi in qurgan xarobani tanladim. Bu yo'l halokat, yo'qlik va afsuslar yo'lidir. Iste'doding bilan Vatan ko'ksida porlagan bir yolqin bo'lishing mumkin edi, lekin sen soxta vatanparvarlar, aslida esa g'alamislar qo'lida qaramsan endi. Hali ham kech emas, qismatingni o'zgartirish o'z qo'lingda, Vataning bag'riga qayt, o'g'lon!

O'ktamxon AKBAROVA,
O'zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi a'zosi



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Timur Narziyev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

ko'tibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Shohrux Saidov

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva

Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: 157

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 34 350 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Muruvvatli-dil press" MChJ mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"Muruvvatli-dil press" MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Chilonzor tumani "Nafosat" MFY Qatortol ko'chasi, 21-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA



www.mudofaa.uz



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya